



O'zbekiston Respublikasi  
Ichki ishlar vazirligi nashri

Vatanga va xalqqa sadoqat bilan xizmat qilish – oliy burchimiz!

# Postda Ha nocty

2024-yil  
8-avgust  
payshanba

№ 32 (4674)

Gazeta 1930-yil 12-maydan chiqa boshlagan

Web-site: www.postda.uz

E-mail: info@postda.uz

**BIR BO'LSAK – YAGONA XALQMIZ, BIRLASHSAK – VATANMIZ**

## DILLAR TUTASHGAN OSHYON



O'zbekiston – ko'p millatli mamlakat. Turli millat va elat vakillari o'zaro totuv-inoq yashab, Vatanimiz taraqqiyoti yo'lida hamjihatlik bilan mehnat qilib kelmoqda. Xususan, yurtimizda shunday oilalar borki, aynan ushbu jihat ularda o'z aksini topgan.

➔ 2



**KEYINGI MARRA OLTIN,**  
– deydi olimpiadaning bronza medali sohibi,  
safdor Muzaffar To'raboyev



➔ 2



➔ 15

**ХАРАКТЕР,  
ЗАКАЛЕННЫЙ СЛУЖБОЙ**

**USTOZLARGA HURMAT  
QAYERDA QOLDI?**



17



PARIJ – 2024

## KEYINGI MARRA OLTIN,

– deydi olimpiadaning bronza medali sohibi, safdor Muzaffar To‘raboyev

Toshkent viloyati IIB Tezkor vazifalarni bajaruvchi safarbarlik otryadi xodimi, safdor M. To‘raboyev «Parij – 2024» yozgi olimpiada o‘yinlarida ham dzyudo bo‘yicha -100 kg vazn toifasida bronza medalini qo‘lga kiritib, o‘zbek nomini yana bir bor jahonga ko‘z-ko‘z etdi.

Alpomish avlodidan bo‘lgan asli boysunlik kurashchi Muzaffarbek To‘raboyevning ketma-ket erishayotgan muvaffaqiyatlarini ko‘rib, otasi – milliy kurash bo‘yicha O‘zbekiston va jahon chempioni, xalqaro toifadagi sport ustasi, «El-yurt hurmati» ordeni sohibi Toshtemir Muhammadiyevning qalbi g‘urur va iftixorga to‘lgani shaksiz.



Bolalik chog‘laridan mazkur sport turi bilan shug‘ullanib kelayotgan Muzaffarbek bugungi kungacha yurtimiz va xalqaro doiradagi turli musobaqalarda 30 dan ortiq medal va kuboklarni qo‘lga kiritib, o‘zining naqadar mahoratli sportchi ekanligini barchaga namoyish etdi.

U ilk bellashuvda qozog‘istonlik Nurlixan Sharxan bilan kuch sinashib, raqibini qisqa fursatda «ippon» bahosi bilan mag‘lub etdi. Chorak finalda Niderlandiya vakili Mixail Korrelni ham dog‘da qoldirdi. Faqat yarim finalda ozarbayjonlik Zelim Kosoyevga imkoniyat boy berildi.

– Murabbiylarim bilan o‘tgan mashg‘ulotlarda to‘rt yillikning eng nufuzli musobaqasiga qo‘ldan kelganicha tayyorgarlik ko‘rdik, – deydi olimpiada sovrindori Muzaffar To‘raboyev. – Biz sportchilarga barcha sharoitlarni yaratib berayotgani uchun muhtaram Prezidentimizga minnatdorlik bildiraman. Va ishonirib aytamanki, keyingi Olimpiya o‘yinlarida, albatta, g‘olib bo‘laman!

Mixil SAFAROV,  
o‘z muxbirimiz.

BIR BO‘LSAK – YAGONA XALQMIZ, BIRLASHSAK – VATANMIZ!

## DILLAR TUTASHGAN OSHYON

(Davomi. Boshlanishi 1-betda.)

Ulardan biri sifatida ichki ishlar xodimi, podpolkovnik Allayar Pshiyevning oilasini misol qilib keltirish mumkin. Turkman, o‘zbek, qozoq va qoraqalpoq millatlari vakillaridan tashkil topgan ushbu oila a‘zolarining zabolari turli bo‘lgani bilan yagona maqsad yo‘lida yurtimizga sadoqatli farzandlarni tarbiyalab voyaga yetkazmoqda.

Turkman millatiga mansub bo‘lgan A.Pshiyevning otasi Dadebay Pshiyev mutaxassisligi bo‘yicha iqtisodchi bo‘lib, uzoq yillar davomida qilgan savobli ishlari sabab ushbu hudud aholisi uni haligacha ijobiy xotirlaydi. U turmush o‘rtog‘i Jumagul Omondurdiyeva bilan 5 o‘g‘il va 2 nafar qizni tarbiyalab, ularni mehnatsevar va ilmi bo‘lib yetishishiga alohida e‘tibor qaratdi.

Bugungi kunda mazkur ko‘p millatli baynalmilal oila boshlig‘i J.Omondurdiyeva

16 nafar nabira, 1 nafar evananing suyuqli buvisidir. Nevaralarning bir nechtasi oilaviy kasbni davom ettirib, o‘qituvchi va shifokorlik kasbini tanlagan.

Maqolamiz qahramoni 2007-yilda O‘zbekiston IIV Akademiyasining Serjantlar tayyorlash Oliy kursiga o‘qishga kirib, dastlabki faoliyatini Qo‘ng‘irot tuman IIB huzuridagi Qo‘riqlash xizmatida vsvod komandiri lavozimida boshlaydi. Keyinchalik, Qorao‘zak tuman IIB HPB profilaktika inspektori, HPB boshlig‘i, Amudaryo tuman IIB boshlig‘ining o‘rinbosari bo‘lib ishlab, hozirgi paytda Beruniy tuman IIB boshlig‘ining o‘rinbosari, Jamoat xavfsizligi xizmati boshlig‘i lavozimida xizmat qilib kelmoqda.

Shuningdek, u turmush o‘rtog‘i Nazokat Xidirboeva bilan Muratbek, Yulduz va Imona ismli farzandlarni tarbiyalab, voyaga yetkazmoqda.

– Men tug‘ilib o‘sgan To‘rtko‘l tumani asosan turkman, qoraqalpoq, o‘zbek, qozoq millatlari vakillaridan tashkil topgan bo‘lsa, bizning oilamizda ularning barchasi jamlanib, quda-andachilik rishtalari bilan bog‘langan. Ular o‘zaro suhbatda o‘z tillarida so‘zlashishiga qaramasdan, bir-birini bemalol tushunishadi. Bolalarimiz esa ana shu to‘rt tilda ham ravon gapiradi. Bunday olib qaraganda bizning oilada nafaqat tuman, balki, yurtimizda yashovchi millat vakillarining og‘izbirligi, totuvligi tasdig‘ini topgan desak, aslo mubolag‘a bo‘lmaydi.

Tuman IIB shaxsiy tarkibi ham turli millat vakillaridan tashkil topgan, hamma bir oiladek bo‘lib ketgan. Biz bir ekanmiz, hech qanday xavf-xatar tinchligimizga raxna sola olmasligiga ishonchim komildir, – deydi Allayar Pshiyev.

– Yana bir narsani alohida ta‘kidlab o‘tish joizki, onamiz

turli millat vakillaridan iborat bo‘lgan oila ahilligini, yaqin munosabatlarni saqlashda bosh-qosh bo‘lib kelmoqda. Ishonasizmi, hozirda oilamiz a‘zolari alohida uyga ega bo‘lsa ham xuddi «Kelinlar qo‘zg‘oloni» filmidagidek maosh hisobidan ma‘lum miqdorda umumiy byudjet yig‘ilib boriladi. «Ko‘pniki ko‘l bo‘ladi» deganlaridek hozirda bironimizda kredit olishga hojat yo‘q. Biron-bir zaruriyat paydo bo‘lsa, umumiy mablag‘dan ajratiladi. Bu oila a‘zolarining iqtisodiy holati uchun juda foydalidir.

**Yana bir foydali jihati, shuning hisobidan yaqinda onamizni Haj safariga yubordik. Bu orqali barchamiz ota-ona oldidagi farzandlik burchimizning kichik bir qisminigina ado eta oldik deb o‘ylayman. Albatta, har bir farzand uchun vaqtida tarbiyalab voyaga yetkazgani**

**evaziga ota-onasining duosini olish, uning baxtiyorligini his etishdan ortiq baxt bo‘lmasa kerak deb o‘ylayman, – deydi A.Pshiyevning turmush o‘rtog‘i, o‘zbek tili va adabiyoti bo‘yicha o‘qituvchi Nazokat Xidirboeva.**

Darhaqiqat, yurt mustaqilligi va tinchligini ta‘minlash diyorimizda yashovchi barcha uchun muhim jihattir. Shunday ekan, joriy yil Prezidentimiz qaroriga binoan mustaqillik bayramining «Bir bo‘lsak – yagona xalqmiz, birlashsak – Vatanimiz!» degan shior ostida o‘tkazishning belgilanishi inson qadri va manfaatlar ustun deb belgilangan ijtimoiy davlat va xalqparvar jamiyat qurish yo‘lida amalga oshirilayotgan ishlarning yana bir ko‘rinishi hisoblanadi.

Azamat PIRNIYAZOV,  
o‘z muxbirimiz.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi.





# IMKONIYATLARDAN SAMARALI FOYDALANIB

**Joriy yilning 6-avgust kuni Ichki ishlar vaziri, general-leytenant Po'lat Bobojonov boshchiligida ichki ishlar organlarida professional hamda boshqaruv kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash, ularning malakasini oshirish vazifalariga qaratilgan yig'ilish bo'lib o'tdi.**

Shuningdek, tadbir jarayonida yurtimizga kirib kelayotgan bayram hamda rejalashtirilayotgan muhim siyosiy tadbir jarayonida kriminogen vaziyatning barqarorligini ta'minlash va jamoat tartibini saqlash masalalari muhokama qilindi.

Davlatimiz rahbarining tashabbuslari bilan ichki ishlar organlari uchun kadrlar tayyorlash tizimi zamon talablariga mos ravishda shakllanib, tizimning asosiy sohaviy xizmatlari hisoblangan huquqbu-zarliklar profilaktikasi, tezkor qidiruv, ekspert kriminalistika, jazoni ijro etish, probatsiya, tashkiliy shtab faoliyati bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash uchun imkoniyat yaratildi.

Imkoniyatlardan samarali foydalanish maqsadida 2021-yil 15-apreldagi PQ-5076-sonli qaror bilan ichki ishlar organlari uchun rahbar kadrlarni tayyorlash bo'yicha ilk bor ikki bosqichli magistratura («Tashkiliy-strategik boshqaruv» va «Tashkiliy-taktik boshqaruv») joriy etildi.

Bunda, kelajakda rahbarlarni intellektual bilimli va yetuk professional kadrlar sifatida tayyorlash maqsadida yangicha ta'lim metodlari amaliyotga tatbiq etilmoqda.

Xususan, o'quv mashg'ulotlari modullar asosida nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog'lagan holda tashkil etilgan, tinglovchilar bilan

Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatasi deputatlari, Vazirlik sohaviy xizmat rahbarlari tomonidan sayyor o'quv mashg'ulotlari o'tkazilmoqda.

Sohada ilg'or davlatlarning ijobiy tajribalarini o'rganish maqsadida Qozog'iston, Koreya, Rossiya, Turkiya va Xitoy davlatlariga xizmat safarlari uyushtirilmoqda.

Eng muhimi, tinglovchilar olgan bilimlarini bevosita mahallalarga borgan holda amaliyotda sinab ko'rishlari



uchun ham barcha sharoitlar mavjud.

Bundan asosiy maqsad – ichki ishlar organlari uchun har tomonlama yetuk, intellektual va professional rahbarlarni tayyorlashdir.

Magistratura tashkil etilganidan buyon uni tamomlagan 243 nafar tinglovchilarning aksariyati bugungi kunda rahbarlik lavozimlarida munosib xizmat qilmoqda.

Imtihon va sinovlar jarayonida xizmat faoliyatiga nomunosib topilgan 18 nafar xodim ishdan bo'shatilgan.

Bu yil ham an'anaga ko'ra magistraturani 73 nafar tinglovchilar bitirdilar. O'qish jarayonida 2 nafar tinglovchi o'quv mashg'ulotlarini yaxshi o'zlashtirmaganligi uchun o'qishdan chetlatilgan.

O'z navbatida, magistraturadagi o'qish vaqtida ijobiy natijalarga erishgan 2 nafar tinglovchi muddatidan avval

rahbarlik lavozimlariga tayinlangan.

Yig'ilishda tashkiliy masalalar ham ko'rib chiqildi.

Ichki ishlar vazirining tegishli buyrug'i bilan vazirlikning sohaviy xizmatlari, hududiy hamda tuman-shahar ichki ishlar organlari bo'linmalari boshliqlari va ularning o'rinbosarlari lavozimlariga rahbarlar tayinlandilar.

Shuningdek, tadbir jarayonida yurtimizga kirib kelayotgan bayram hamda rejalashtirilayotgan muhim siyosiy tadbir jarayonida kriminogen vaziyatning barqarorligini ta'minlash va jamoat tartibini saqlash masalalari muhokama qilindi.

Yig'ilishda kun tartibiga binoan ko'rib chiqilgan masalalar hamda aniqlangan kamchiliklar tanqidiy muhokama qilinib, kelgusida xizmat faoliyatini takomillashtirishga oid maqsadli chora-tadbirlar belgilab olindi.



## XALQARO HAMKORLIK

# MUSHTARAK MAQSADLAR SARI

**Yaqinda Xitoy Xalq Respublikasi Jamoat xavfsizligi vazirligi Ekspert-kriminalistika markazi bosh direktori Chjao Simin boshchiligidagi delegatsiya rasmiy tashrif bilan mamlakatimiz IIV Ekspert-kriminalistika bosh markazida bo'ldi.**

Amaliy hamkorlik qilish istiqbollari bag'ishlangan kengaytirilgan uchrashuvda ekspert-kriminalistika tadqiqotlari nazariyasi, huquqi, shakllanishi va metodologiyasi masalalari yuzasidan ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish, ekspertiza o'tkazishning yangi usullari va didaktikasini yaratish hamda ekspert amaliyotida tajriba almashish masalalari ko'rib chiqildi.

Shuningdek, vazirlik Ekspert-kriminalistika bosh markazi faoliyati bilan yaqindan tanishgan delegatsiya a'zolari bu borada o'z fikr va mulohazalarini bildirishdi.

Samimiy ruhda o'tgan uchrashuv yakunida o'zaro hamkorlik to'g'risida Anglashuv memorandumini imzolandi. Mazkur kelishuv kelgusida yurtimiz ekspert-kriminalistika sohasida ilmiy ishlarini muvofiqlashtirish, metodik va o'quv dasturlarini amalga oshirish, seminar-treninglar tashkil etish hamda sud ekspertizasi tadqiqotlarini o'tkazishda zamonaviy axborot texnologiyalari yutuqlarini va innovatsion usullarni qo'llash orqali jinoyatlarni tergov qilish va fosh etish borasida ikki tomonlama hamkorlikning yanada rivojlanishiga xizmat qilishi shubhasiz.

**Baxtiyor MAMAJANOV,**  
podpolkovnik.





## Ровесники независимости

# СТИМУЛ ДЛЯ ГОРДОСТИ

**Скоро всей страной мы будем отмечать 33-ю годовщину независимости Узбекистана. За более чем три десятка лет республика прошла славный путь развития, сопряженный с решением важных задач, создания правовых основ демократического общества, где интересы человека определены в качестве высшей ценности.**

За это время выросло целое поколение новой формации, кому доверена дальнейшая судьба реформ, строительство Нового Узбекистана – социального государства с развитой экономикой. Они уже успешно трудятся во всех сферах.

Одним из них является заместитель командира спецотряда УБДД СОБ МВД Республики Каракалпакстан лейтенант Ергалий Юлдашев.

Он всегда увлекался математикой, был в числе отличников. После окончания школы поступил в Каракалпакский государственный университет имени Бердаха по направлению экономики. Планировал продолжить работу по специальности. Но судьба распорядилась иначе, сказалось влияние родителей.

В 2017 году был принят рядовым в службу охраны при ОВД Тахиаташского района. Через два года его перевели в ДПС.

Наряду с неукоснительным исполнением служебных обязанностей, Ергалий отличают высокая ответственность, отзывчивость и чувство долга. Он всегда готов прийти на помощь к тем, кто в ней нуждается. Следуя на служебном транспорте, однажды увидел, как у кольцевой дороги голосовал мужчина. Остановил-

ся. Оказалось, что голосовавший направлялся из Кунградского района в Тахтакупырский, его машина заглохла. Лейтенант отбуксировал неисправную машину до ближайшей автомастерской.

Е. Юлдашев регулярно занимается спортом. Будучи еще студентом, выступал в составе сборной Республики Каракалпакстан по волейболу, позже защищал честь сборной команды МВД Узбекистана. Является кандидатом в мастера спорта.

Его семью можно по праву назвать династией сотрудников органов внутренних дел. Отец – подполковник Салибай Сейтов служит в отделе профилактики правонарушений Амударьинского РОВД. Мать Гаухар Утемуратова – подполковник в отставке. Супруга – младший сержант Раушан Тажимуратова служит в Управлении безопасности дорожного движения. Подрастают дети Ойдиной и Муса.

– Быть ровесником независимости – стимул для особой гордости. Рад, что вношу вклад в обеспечение правопорядка и мирной жизни граждан, – говорит Е. Юлдашев.

**Азамат ПИРНИЯЗОВ,**  
соб. корр.

Республика Каракалпакстан.



## Социальная защита

### ■ Наманганская область



**В системе МВД Республики Узбекистан особое внимание уделяется вопросам социальной защиты сотрудников. При этом механизм настроен так, чтобы социальная помощь оказывалась максимально оперативно и адресно.**

Через платформу «Е – ijtimoiy himoya» поступают обращения от сотрудников, желающих улучшить жилищно-бытовые условия. Специальная комиссия изучает потребности заявителей, посещая их семьи. Вопрос решается на основе заключения комиссии.

В текущем году в УВД Наманганской области запланировано покрыть начальный взнос для приобретения жилья 25 сотрудникам. Накануне 33-й годовщины независимости это станет хорошим подарком для людей, обеспечивающих мир и спокойствие граждан. Ключи от квартир намечено вручить в преддверии главного праздника страны.

**Илхомжон ТУРГУНБОЕВ,**  
старший лейтенант.





PROFILAKTIK TADBIR

# TURMUSHNING MUSHTI BOR(MI)?

**Mamlakatimizda oilalarning turmush farovonligini ta'minlash, ayniqsa, ushbu muqaddas dargohlarda ajrimlarning, huquqbuzarlik hamda jinoyatchilikning oldini olishga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda.**

Navoiy viloyati hokimligi va Ichki ishlar boshqarmasining qo'shma qarori asosida shu kunlarda har bir tuman va shahar kesimida «Turmush» profilaktik tadbiri o'tkazilayotgani ham fikrimizning tasdig'idir.

Xuddi shunday tadbirlardan gal-dagisi Xatirchi tumanida tashkil etildi. Tumanda 70 ta MFY joylashgan. Afsuski, ushbu mahallalarda yashovchi xotin-qizlardan 380 nafarga yaqini profilaktik hisobga olingan. «Turmush» tadbiri davomida nizolashib kelayotgan, xastaligi tufayli hisobda turgan, muqaddam sudlangan, probatsiya hisobida hamda profilaktik hisobda turgan shaxslarning oilalaridagi ijtimoiy-ma'naviy muhit «mahalla yettiligi» tomonidan chuqur o'rganib chiqildi. Ularga huquqiy maslahatlar, ijtimoiy yordam ko'rsatilib, ishsiz xotin-qizlarning bandligini ta'minlash choralari ko'rildi.



Tuman IIB profilaktik hisobida turuvchi xotin-qizlarning 36 nafari «Ayollar daftari»ga kiritilgan. Joriy yilning o'tgan davrida tazyiq va zo'rvonlikdan jabrlangan 155 nafar ayolga himoya orderlari rasmiylashtirib berildi. Shuningdek, mazkur toifadagi xotin-qizlarning 5 nafari Ayollarni reabilitatsiya qilish va mos-

lashtirish markaziga joylashtirilib, davlat himoyasiga olindi.

Tuman hududida ajrim yoqasiga kelib qolgan 192 ta oila hozirgi kunda sudlashayotgan edi. «Turmush» tadbiri davomida Oila va xotin-qizlar bo'limi, IIB xodimlari ishtirokida sudlar bilan hamkorlikda shuningdek, «Oilaviy qadriyatlarini

mustahkamlash komissiyasi» bilan birgalikda 74 ta oilani yarashtirish choralari ko'rildi.

«Navbahor» mahallasida tashkil etilgan tadbir chog'ida ijtimoiy himoyaga muhtoj, oilada o'zaro nizolashgan, huquqiy va psixologik ko'makka zarurati bo'lgan fuqarolar bilan profilaktik suhbat o'tkazildi. Ko'plab xonadonlarning muammolari o'rganilib, ajrim yoqasidagi hamda nizoli oilalarni yarashtirishga muvaffaq bo'lindi.

Muloqotlar davomida oilada ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlash, xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'rvonlik o'tkazilishining hamda ular tomonidan huquqbuzarlik va jinoyat sodir etilishining barvaqt oldini olish, ayollarning huquqiy savodxonligini oshirish, ajrimlarga sabab bo'layotgan omillarni bartaraf etishga doir zaruriy tavsiyalar berildi. Tazyiq va zo'rvonlikdan jabrlangan xotin-qizlarga himoya orderlari rasmiylashtirildi.

**Mahliyo XOLOVA,**  
o'z muxbirimiz.

Navoiy viloyati.



IBRATLI DUNYO

## RASSOMNING IQRORI

Bir rassom go'zal rasm chizdi. Va uni ko'pchilik yig'iladigan joyga qo'ydi-da, tepasiga: «Kimda-kim bu rasmda kamchilik ko'rsa, ustiga qizil qalam bilan belgi qo'ysin!» deb yozib qo'yibdi.

Kechqurun kelib qarasa, rasm qip-qizil bo'yoqqa to'lib ketibdi. U shaxt bilan ustozining oldiga borib, rasmdan voz kechmoqchiligini aytibdi.

– Yo'q, – debdi ustoz unga, – sen, yaxshisi, iborani o'zgartir: kim rasmda kamchilik ko'rsa, uni tuzatsin, deb yozib qo'y va holatni kuzat.


Rassom ustozining aytganini bajaribdi. Buni qarangki, oradan bir necha kun o'tsa ham, rasmda hech kim hech nima yozmabdi.

Shogird yana ustozining oldiga borib, bu holatning sababini so'rabdi.

– Ko'rdingmi? – deb kulibdi rassomning ustoz. – Bu hayotda hamma narsadan xato topadiganlar ko'p, biroq shu xatoni tuzatadigan, isloh etadiganlar juda kam.

Xulosa shuki, xato qidiruvchi emas, xato qilgan insonga xatosini tuzatishda yordam berguvchi bo'laylik.

Feruz RAHMONQULOVA tayyorladi.





## ■ Самаркандская область

## РЕАЛИЗОВАТЬ СВОЙ ПОТЕНЦИАЛ



– Наша профессия – это призвание, – уверен старший следователь Следственного управления при УВД области майор **Фахриддин ИБРАГИМОВ**. – Чтобы добиться успеха в ней, нужно обладать не только знаниями и опытом, но и неугасимым стремлением к справедливости, готовностью к сложностям, постоянному самосовершенствованию.



**Кинолог кинологического отдела №1 УООП СОБ УВД области рядовой Илхом БЕРДИЕВ**. Службу в ОВД начал в 2010 году в ДПС, затем работал в отделе охраны, в кинологическом подразделении с 2020 года:

– В современном мире практически все находят высокотехнологичные замены, однако служебных собак не сможет заменить никакое устройство. Собака обладает тем, чего нет у самой сложной техники – чувствами. Она мотивируется позитивными эмоциями, радуется взаимодействию со своим другом и напарником – кинологом.



**Инспектор ППС УООП СОБ УВД области рядовой Низомиддин АМАНОВ:**

– Даже если я не на смене, но замечаю, что происходит что-то противоправное, обязательно вмешаюсь, выясню, в чем дело. Шел служить в органы внутренних дел именно для того, чтобы быть на страже закона, вовремя придти на помощь.



**Инспектор дежурной части Организационного управления УВД области старший сержант Вохид ЗОИРОВ:**

– Служба в дежурной части требует способности принимать верные решения в условиях ограниченного времени, высокой ответственности. Именно от наших действий зависит оперативность реагирования на происшествия.



– Основной приоритет кадровых служб – эффективное комплектование подразделений, – отмечает **главный инспектор Службы духовно-просветительской работы и кадрового обеспечения УВД области капитан Фаррух УСМОНОВ**. – Необходимо отбирать сотрудников, обладающих профессиональными и деловыми качествами, чьи компетенции наиболее соответствуют специфике той или иной службы.

★ «Веселые старты»

## ТУРНИР, ОБЪЕДИНЯЮЩИЙ СЕМЬИ

В этом году в спортивном празднике «Веселые старты», проходившем под девизом «Папа, мама, я – спортивная семья!», приняли участие 15 семей сотрудников правоохранительных органов со всех районов области.



Участники состязались на силу, ловкость, смекалку, меткость, быстроту реакции.

Организаторы подготовили ряд конкурсов – эстафета с мячом и скалкой, перетягивание ка-

ната, бег с препятствиями и многое другое. Все этапы увлекательных соревнований проходили в напряженной борьбе. Болельщики и зрители следили за ходом событий и переживали.

Задор и стремление к победе захватывали соревнующихся. Все старались прийти к финишу первыми.

По итогам состязаний победила семья Кучкоровых: отец семейства, капитан Жамшед Кучко-

ров, работает инспектором профилактики в махалле Олга Нурабадского района. Вместе супругой они воспитывают двоих замечательных девочек – Гулсанам и Малику. Гулсанам планирует пойти по стопам

отца. В свободное время она занимается волейболом. Малика предпочитает баскетбол. Любовь к спорту у девочек от отца – выпускника факультета физического воспитания Джизакского государственного педагогического университета. В минувшем году капитан Кучкоров был признан лучшим инспектором профилактики Нурабадского РОВД, в областном этапе конкурса занял второе место.

В спортивном празднике «Веселые старты» хороший результат показала и семья Зиёдуллаевых. Они частые участники конкурса «Примерная семья». Отец семейства, майор Толмас Зиёдуллаев – инспектор профилактики махалли Боги Феруза города Самарканда. Вместе с супругой воспитывают дочь Одину и сына Мухаммада.

Проигравших в «Веселых стартах» не было и не могло быть: все участники награждены подарками от организаторов.

**Замира БАЛТАЕВА,**  
соб. корр.



Xizmatlarda

# KASALNI DAVOLAGANDAN KO'RA...

**Qashqadaryo viloyati Transportda xavfsizlikni ta'minlash boshqarmasi «Dehqonobod» bekatida xavfsizlikni ta'minlash bo'linmasi xizmat hududi «Toshguzar» – «Qoradaxna» temiryo'l bekatlari oralig'ining 1-km dan 68-km gacha bo'lgan masofani tashkil etadi. Xizmat hududidagi temiryo'l izlari yaqinida ko'plab mahallalar, ta'lim muassasalari, tarmoq korxonalarini joylashganki, bu zimmamizdagi mas'uliyatni ikki karra oshiradi.**

Xodimlarimiz tomonidan joylarda temiryo'l ishchilari, aholi, ayniqsa, voyaga yetmaganlar o'rtasida harakat xavfsizligi qoidalariga amal qilish, belgilanmagan joylardan o'tmaslik, temiryo'l izlari yaqinida chorva mol-

larini boqmaslik, poyezd vagonlariga tosh otmaslik, temiryo'l izlariga begona jism qo'yimaslik yuzasidan doimiy ravishda targ'ibot ishlari olib borilyapti. «Chorshanba – temiryo'llarda xavfsiz kun», «Payshanba – huquqbuzarliklarning oldini olish kuni» doirasida profilaktik tadbirlar o'tkazilmoqda. Shunga qaramay, ayrim ko'ngilsiz holatlar uchrab turibdi.

G'uzor tumanidagi «Chuchuk» mahallasida yashovchi fuqaro I.Tilovov chorva mollarini boqib yurgan vaqti-



da «Bo'zaxo'r» – «Jarquduq» bekatlari oralig'ida harakatlanib ketayotgan «Toshkent – Termiz» yo'lovchi poyezdi vagonlaridan birining oynasiga tosh otadi. Oqibatda vagon oynasi sinadi. Bu holat yuzasidan fuqaroga nisbatan ma'muriy bayonnoma rasmiylashtirilib, jarimaga tortildi. Temiryo'l tashkilotiga yetkazilgan zarar ham undan undirildi.

Hozirgi kunda xodimlarimiz piyoda va avtopatruil yo'nalishlarida xizmat olib borishmoqda. Bu jarayonda bo'linma PPX xodimlari – katta serjant U.Sattorov, safdordlar B.Temirov va A.Oqboevlar boshqa hamkasblariga o'rnak bo'layotir.

**Amirxon JULANOV,**  
kapitan.  
Qashqadaryo viloyati.



O'quv kurslari

# DIQQAT MARKAZIDA XALQARO STANDARTLAR

**29–31-iyul kunlari Toshkent shahrida «Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bangkok qoidalarini, yopiq muassasalar va ozodlikdan mahrum qilish joylarida qiynoqlar, g'ayriinsoniy va qadr-qimmatni kamsituvchi muomala va jazolarning oldini olish bo'yicha genderni sezgir yondashuvlar» mavzusida o'quv kurslari bo'lib o'tdi. Undan ko'zlangan maqsad IIV huzuridagi JIED tizimidagi jazoni ijro etish muassasalari vakillarini qiynoqlarning oldini olish va inson huquqlarini rag'batlantirish bo'yicha xalqaro standartlar bilan tanishtirishdan iborat edi.**

Tadbir Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi tomonidan YEXHTning O'zbekistondagi loyihalari muvofiqlashtiruvchisi va IIV huzuridagi JIED bilan hamkorlikda tashkil etildi. O'quv kurslarining ochilishida Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikerining birinchi o'rinbosari, Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi direktori Akmal Saidov, Oliy Majlisning Bola huquqlari bo'yicha vakili (Bolalar ombudsmeni) Surayyo Rahmonova, YEXHTning O'zbekistondagi loyihalari muvofiqlashtiruvchisi



Antti Karttunen, «Barkamol hayot» markazi direktori Oliy Ilmurodova, IIV huzuridagi JIED Tarbiyaviy ishlarini tashkil etish boshqarmasi muhim topshiriqlar bo'yicha inspektori, podpolkovnik Burxonxo'ja Akromov so'zga chiqdi.

O'quv mashg'ulotlari doirasida Bangkok qoidalarining asosiy tamoyillari va ushbu qoidalarga kiritilgan o'zgartirishlarning mazmun-mohiyati hamda ahamiyatiga e'tibor qaratiladi. Tegishli huquqbuzarliklarni aniqlash, ayol mahkumalarni qiynoqlar va shafqatsiz muomaladan himoya qilish yuzasidan jazoni ijro

etish muassasalari xodimlarining bilimni oshirish va ko'nikmalarini shakllantirish masalasi alohida diqqat markazida bo'ldi.

Shuningdek, tadbirda so'zga chiqqan ma'ruzachilar O'zbekiston Prezidentining farmoni bilan tasdiqlangan Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy strategiyasi va uni ijro etish maqsadida ishlab chiqilgan «Yo'l xaritasi»da ham inson huquqlarini himoya qilish va qiynoqlarning oldini olish borasida institutsional mexanizmlarni takomillashtirish yuzasidan qator chora-tadbirlar bel-

gilanganini ta'kidlashdi. Xususan, ayollarning jamiyatimizdagi rolini oshirish bo'yicha mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ishlarni alohida qayd etib o'tdilar.

YEXHTning O'zbekistondagi loyihalari muvofiqlashtiruvchisi tomonidan jalb qilingan inson huquqlari bo'yicha ekspertlar Azamat Shambilov va Annet Varman tadbir ishtirokchilariga bu boradagi ilg'or tajribalar bo'yicha foydali hamda qiziqarli ma'lumotlarni taqdim etdilar.

**Shahrizod SHOKIROV,**  
kapitan.



## KINOLOGIYA XIZMATI

## Toshkent shahri

## MIGRATSIYA XIZMATI

## Xorazm viloyati



Qurbonali To'xtasinov bolaligidan hayvonot olamiga mehri bo'lakcha bo'lib ulg'aydi. Yordamga muhtoj parranda bo'ladimi, hayvon bo'ladimi, bor mehr-u muhabbatini berib, o'zicha uni davolab, yana tabiat qo'yniga qo'yib yuborardi. Yigitlik burchini o'tash davrida ham kinolog sifatida yurtimiz sarhadlarini qo'riqladi.

## «SABR-BARDOSHLI, MEHRLI BO'LI SH KERAK»

Safdor Qurbonali To'xtasinov 2009-yilda ichki ishlar organlaridagi faoliyatini Toshkent metropolitenini qo'riqlash bo'yicha IIBda boshlab, 2013-yildan xizmatini Toshkent shahar IIBB huzuridagi qo'riqlash boshqarmasida davom ettiradi. 2017-yildan esa u kichik inspektor-kinolog lavozimida xizmat qilib kelmoqda.

– Birinchi xizmat itim «Idi» laqabli nemis ovcharkasi bo'lgan, – deydi lavhamiz qahramoni. – U menga 6 oyligida birlashtirilgan, hozir 8 yosh.

Qurbonali tilsiz yordamchisi bilan o'g'irlik, bosqinchilik, qotillik, o'tkir jism bilan tan jarohati yetkazish kabi jinoyatlarni ochishga muvaffaq bo'ldi.



Toshkent shahar IIBB JTSB Kinologiya xizmati kichik instruktoriga safdor Qurbonali To'xtasinov xizmat itlari bilan tizimdagi kuch va vositalarning salohiyatini namoyish qilish maqsadida umumta'lim maktablari, mehribonlik uylari, litseylar va oliy o'quv yurtlarining o'quvchi-talabalari uchun targ'ibot-tashviqot ishlari hamda «Iz-qidiruv», «Portlovchi» va «Giyohvand» maxsus yo'nalishlari bo'yicha ko'rgazmali chiqishlarda qatnashib kelmoqda.

Yosh va shijoatli Q. To'xtasinovdan «It bilan til topisholmay qolgan kezlaringizda yoki jonivordan sizga biror shikast yetganida, bekor bu kasbni tanlagan ekanman, deb afsuslangan yoki kasbingizni o'zgartirishni xohlagan paytlaringiz bo'lganmi?» deb so'raganimizda, u quyidagicha javob berdi:

– To'g'ri, itni tarbiyalash oson emas. Yashirmayman, jarohat olgan paytlarim ham bo'lgan, lekin kinologiyani tashlab ketish xayolimga ham kelmagan. It bilan yaxshi til topishish uchun eng asosiysi – o'tkir zehni, sabr-bardoshli, mehrlil bo'lish kerak.

Safdor Qurbonali To'xtasinov har kuni ishga kelishi bilan oq, birinchi galda xizmat itlari «Idi» va «Nord» bilan salomlashadi, ularni o'zi yoqtirgan mahsulotlar bilan siylaydi, turli mashg'ulotlar o'tkazadi. O'z o'rnida tilsiz do'stlari ham unga mehr ko'rsatadi, kayfiyatini ko'taradi. Qahramonimiz shundagina ko'zlagan natijaga erishish mumkin, deydi.

Qurbonali oilali, ikki nafar qizi va bir o'g'li bor. Farzandlari ham xuddi otalaridek jonivorlarga mehribon.

Adolat FAYZIYEVA,  
o'z muxbirimiz.

Joriy yilning o'tgan davrida Gurlan tumani IIB Migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bo'linmasi xodimlari tomonidan o'tkazilgan profilaktik tadbirlarda 567 nafar fuqaro «pasport-viza» qoidalariga amal qilmagani aniqlandi. Shundan 39 nafari belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tmagan, 528 nafari esa haqiqiy hisoblanmagan pasport yoki guvohnomalar bilan yurgan.

Xuddi shuningdek, chet davlatlarga turli maqsadlarda ketgan fuqarolardan 42 nafari belgilangan qonun talablariga rioya etmagani uchun yashash manziliga vatanga qaytish guvohnomasi bilan kelgan hamda ularga nisbatan tegishli tartibda ma'muriy choralar ko'rildi.



– Hisobot davrida 11 ming 610 nafar fuqaroga ID-karta, 3 ming 224 nafariga esa xorijga chiqish pasporti rasmiylashtirib berildi, – deydi tuman IIB M va FRB boshlig'i, kapitan Sardor Matyoqubov. – 16 yoshga to'lgan yigit-qizlarga ID-kartalarni tantanali ravishda topshirishga alohida e'tibor qaratyapmiz. Bu yoshlarimizning huquqiy bilimni oshirish, dunyoqarashini kengaytirish, fuqarolik pasportiga bo'lgan munosabatini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bo'linmada xodimlarning aholiga namunalil xizmat ko'rsatishi uchun barcha sharoitlar mavjud. Xizmat binosi to'la ta'mirdan chiqarilgan, xonalar zarur mebel jihozlari, zamonaviy kompyuter texnikalari va aloqa vositalari bilan ta'minlangan. Ayniqsa, fuqarolarni qabul qilish, ma'lumotlarni rasmiylashtirish va yig'ish, hujjatlarni tarqatish hamda kutish zalining did bilan jihozlanishi bu yerga tashrif buyuruvchilarni mamnun etmoqda.


Xudoybergan JABBOROV,  
o'z muxbirimiz.





# OSOYISHTALIK OMILI

Viloyat markaziga yondosh Buxoro tumani 1926-yil 29-sentabrda tashkil topgan. U shimoldan Vobkent va Romitan, g'arbdan Jondor, sharqdan Kogon, janubi-sharqdan esa Qorovulbozor hamda qo'shni Navoiy viloyatining Qiziltepa tumanlari bilan chegaradosh. Tumanda 36 ta mahalla mavjud. Hududda 180 mingga yaqin aholi ahil-inoq istiqomat qiladi. Mahallalarda tuman IIB xodimlari, ayniqsa, profilaktika inspektorlari faollar va jamoatchilik vakillari bilan birgalikda aholi tinchlik-osoyishtaligini ta'minlab kelishyapti.



Bo'limning shaxsiy tarkibi asosan yoshlardan iborat. Shunday xodimlardan biri Buxoro davlat universitetini muvaffaqiyatli tamomlab, 2020-yilda profilaktika inspektori lavozimida xizmat faoliyatini boshlagan Izzat Zikriyoyev.

– Izzatjon ikki yil burun tumanimizdagi «Bog'ikalon» mahallasini «yashil» toifaga aylantirishga munosib hissa qo'shdi. Shuningdek, jinoyat va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish, notinch, nizoli oilalar, spirtli ichimlikka ruju qo'ygan, jinoyat sodir etishga moyil bo'lgan shaxslarni aniqlash borasida olib borayotgan tizimli ishlarining samarali bo'layotganligi bois va Yoshlar kuni munosabati bilan muddatidan oldin rag'batlantirish maqsadida unga kapitan unvoni berildi, – deydi tuman IIB boshlig'i o'rinbosari, kapitan Alijon Yusupov.

IIV tomonidan berilgan imtiyoz asosida Toshkent davlat yuridik universitetining sirtqi ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan kapitan I. Zikriyoyev ayni paytda «sariq» toifadagi «Shergiron» mahallasida xizmat olib boryapti.

O'zining kasbiy mahorati hamda insoniylik fazilatlarini bilan hamkasblariga o'rnak bo'layotgan yana bir xodim, tuman IIB Tashkiliy bo'linma boshlig'i, mayor Farrux Usmonovdir.

Mayor Farrux Usmonov Buxoro davlat universitetini tugatgan. Ichki ishlar organlaridagi xizmat faoliyatini 2013-yilda Kogon shahar IIB profilaktika inspektori lavozimida boshlagan. Egallab turgan lavozimida 2024-yildan beri xizmat qilib kelyapti.


– Hududda yuz berayotgan kriminogen jarayonlarni uzluksiz o'rganishni tashkil etish, jinoyatlar va huquqbuzarliklar, tezkor xizmat faoliyatining natijalari, ijtimoiy-iqtisodiy, demografik va boshqa omillarning huquq-tartibotga ta'siri haqidagi axborotlarni tizimlashtirib, tezkorlik bilan tahlil

qilib bormoqdamiz, – deydi mayor F.Usmonov. – Shuningdek, jinoyatchilik va huquq-tartibotning ta'minlanishi haqida jamoatchilik fikri va uning dinamikasini tizimli monitoring qilish ham faoliyatimiz sirasiga kiradi.

Jamoatchilik ishlarida ancha faol mayor F.Usmonov jinoyatchilikning oldini olishda ham jonbozlik ko'rsatib kelmoqda. Xususan, 28-may kuni tuman IIB Jinoyat qidiruv bo'limi xodimlari bilan hamkorlikda o'tkazilgan «Qidiruv» tadbirida Jinoyat kodeksining 169-modda 3-qismi «a»-bandida ko'rsatilgan jinoyatni sodir qilgan va jazoni o'tashdan bo'yin tovlab yurgan, «Gulshanobod» mahallasida yashovchi, muqaddam sudlangan, 2006-yilda tug'ilgan A.S.ni yashiringan manzilida qo'lga olishda ishtirok etdi.

Leytenant Fuzaylxo'ja Izbullayev ham kasbiga sadoqat bilan xizmat qilayotgan yosh xodimlardan. U 2022-yilda IIV Akademiyasini tugatib, tuman IIB huzuridagi tergov guruhi tergovchisi lavozimida faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Kasbining sir-asrorlarini puxta egallashida ustozlari, tuman IIB huzuridagi tergov guruhi katta tergovchisi, mayor Mirjalol Temirovning xizmatlari katta bo'lmoqda.

Yosh tergovchi shu yilning o'tgan oylari davomida 40 tadan ortiq jinoyat ishlarini tergov qildi. Tergov qilingan ishlar asosan firibgarlik, bezorilik, o'g'irlik va qasddan badanga og'ir tan jarohati yetkazish singari jinoyat turlariga oid. Fuzaylxo'ja ustozining o'g'irlari, yo'l-yo'riq va maslahatlariga amal qilib, har bir jinoyat ishini puxta o'rganib, dalil-isbotlar asosida fosh etib kelyapti.



Ichki ishlar organlarida shunday soha borki, biz ularning faoliyatiga kamdan-kam to'xtalamiz. Biroq bu sohaning sodir etilgan jinoyatlarni «issiq izida» ochishda hissasi katta. Galdagi qahramonimiz tuman IIB ta'minlash va xizmat ko'rsatish bo'linmalari haydovchisi, safdor Rustam Rasulov ana shunday xodimlardan.

– Haydovchilik nihoyatda mas'uliyatli vazifa, – deydi safdor R. Rasulov. – Navbatchilik qismiga ajratilgan «Damas» xizmat avtomashinasini doimiy texnik soz, xizmatga shay va toza-ozoda saqlab, hamkasblarimning hodisa joyiga sog'-omon yetib borish mas'uliyatini zimmamga olganman. Qolaversa, osoyishtalikni saqlashda, fuqarolar xavfsizligini ta'minlashda munosib hissa qo'shib kelayotganimdan faxrlanaman.

**Mirzoqul AHADOV,**  
o'z muxbirimiz.

Buxoro viloyati.



# QONUN USTUVORLIGI — XALQPARVAR DAVLAT TAYANCHI

**Bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan globallashuv jarayonida jamiyatning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy masalalari hamda muammolarini qonun ustuvorligini ta'minlagan holda hal etish zamon talabidir. Sohibqiron Amir Temur «Davlat qonunlar asosida qurilmas ekan, unday saltanatning shukuhi, qudrati va tarkibi yo'qoladi», deb bejiz ta'kidlagan.**

Davlat tizimi uchun qonun ustuvorligi boshqaruvning eng muhim tamoyillaridan biri hisoblanadi. Bu barcha jismoniy va yuridik shaxslar, fuqarolik jamiyati institutlari, muassasalar hamda tashkilotlar, mansabdor shaxslar, shuningdek, davlat organlarining o'zi ham qonunlar oldida javobgar ekanligini anglatadi.

Qonun ustuvorligi, o'z navbatida, qonun oldida tenglikni, uni qo'llashda adolatlikni, hokimiyatning bo'linishini, jamiyat hayotiga aloqador qarorlar qabul qilinishida ularning ishtirok etishini, qonunlar qabul qilinishida o'zboshimchaliklarga yo'l qo'yilmasligini, ularning shaffofligini taqozo etadi.

*O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko'ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmat va boshqa ajralmas huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi. Demokratik huquq va erkinliklar Konstitutsiya va qonunlar bilan himoya qilinadi.*

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 13-modda.

Mazkur tamoyil inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish orqali ijtimoiy hamda iqtisodiy taraqqiyotga erishishga, tinchlik va xavfsizlikni ta'minlashga, shuningdek, siyosiy barqarorlikni saqlashga xizmat qiladi. Bunga aholining davlat xizmatlaridan foydalanish sifatini oshirish, korrupsiyaga sabab bo'luvchi omillarga chek qo'yish, hokimiyat vakolatlarini suiiste'mol qilish holatlariga barham berish natijasida jamiyat a'zolari va davlat o'rtasidagi ishonch ko'priklarini mustahkamlash orqali erishish mumkin.

Davlat rahbarining tegishli farmoni bilan tasdiqlangan «O'zbekiston – 2030» strategiyasida ham aynan yuqoridagi maqsadlarga erishish borasida bir qator dolzarb vazifalar, aniq yo'nalishlar belgilab berilgan. Xususan, islohotlar samaradorligini oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish hamda xalq farovonligiga erishish shular jumlasidir.

Xo'sh, bu maqsadlar qanday amalga oshiriladi? Strategiyada belgilanganidek, aholi farovonligini ta'minlash va hududlarda kundalik masalalarni hal etishda mahalla-

ni jamoatchilik hamda davlat organlari o'rtasidagi «tayanch ko'prikk»a, mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarini esa xalqning chinakam «ovozi-ga» aylantirish kerak. Davlat xizmatlarini raqamlashtirishning ko'lamini kengaytirish orqali fuqaro va davlat o'rtasidagi munosabatlarda byurokratik tartibotlarga barham berish dardkor.

Yangi O'zbekistonni barpo etishda Oliy Majlis palatalari va siyosiy partiyalar rolini yanada oshirish lozim. Bu esa norma ijodkorligi faoliyatining islohotlar bilan uyg'unligini ta'minlash va davlat huquqiy siyosatining institutsional asoslarini rivojlantirish demakdir. Xalq bilan muloqotni yanada kengaytirish orqali aholi

«Biz islohotlarimizning ilk kunlaridanoq inson qadriini ulug'lashni eng oliy qadriyat sifatida e'tirof etdik. Yangilangan Konstitutsiyamizda ham O'zbekiston huquqiy davlat



**Har qanday demokratik islohotlar samarasi, tinchlik va taraqqiyotning asosiy garovi ham Konstitutsiya va qonun ustuvorligi ta'minlanishi bilan bevosita bog'liq.**

**Shavkat MIRZIYOEV**

ekanligini muhrlab qo'ydik. Yagona maqsadimiz – adolat va qonun ustuvorligini ta'minlash orqali xalqimizni rozi qilish», – deya ta'kidlagan edi Prezidentimiz. Bugungi kundagi asosiy maqsad ham qonun ijodkorligi faoliyatida barcha g'o-

qonunlarga itoat qilishga da'vat etmog'imiz dardkor. Bundan tashqari, jamiyatda belgilangan odob-axloq qoidalariga amal qilish ham har birimiz uchun asosiy vazifa bo'lsin.

Bundan bir necha asr avval huquqshunos olimlar tomonidan aytilgan «Huquqni anglash mas'uliyat hissini rivojlantiradi» degan hikmatli so'zlar hech qachon o'z dolzarbligini yo'qotmaydi. Shunday ekan, Konstitutsiya va qonunlarga hurmat har bir fuqaroning, jumladan, har bir mansabdor shaxsning ham hayot va faoliyat tarzi-ga aylanmog'i kerak.

Yana bir mulohaza shundan iboratki, jamiyatda qonunga hurmat muhitini shakllantirishda ta'lim-tarbiya katta ahamiyatga ega. Shuningdek, jinoyat sodir etgan shaxs uchun, uning kimligidan qat'i nazar, jazoning muqarrarligini ta'minlash talab etiladi. Bu borada ichki ishlar organlari xodimlari zimmasiga mas'uliyatli vazifalar yuklatilgan.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash o'rinliki, mustaqilligimizni asrash, erkin va farovon hayotga erishish, xalqparvar davlat barpo etish uchun, hech shubhasiz, qonun ustuvorligi ta'minlanishi kerak. Zero, qonun ustuvor bo'lgan jamiyatda inson huquq va erkinliklari ta'minlanadi. Bunday jamiyat esa xalqparvar davlatning tayanchi va suyanchiga aylanadi.

**Salohiddin HAMROYEV,**  
IIV Tashkiliy departamenti  
yetakchi yuriskonsulti,  
katta leytenant.



muammolarini aniqlash va hal etish tizimining samaradorligini oshirish dardkor.

Erkin fuqarolik jamiyatini barpo etishda ommaviy axborot vositalari faoliyatini yanada rivojlantirish ham muhim hisoblanadi. Shuningdek, Konstitutsiya va qonunlarning ustuvorligini, inson huquq va erkinliklarining ishonchli himoya qilinishini ta'minlash sud-huquq islohotlarining asosiy mezonini etib belgilangan.

yalarning markaziga inson huquqlarini qo'yish orqali yangicha yondashuvlar bilan qonun ustuvorligini ta'minlashdir.

Jamiyatda adolat barqaror bo'lishi uchun, avvalambor, o'zimiz qonunlarga qat'iy rioya qilishimiz shart. Qolaversa, farzandlarimiz, qarindosh-urug'larimiz va do'st-birodarlarimizni ham

*O'zbekiston Respublikasida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so'zsiz tan olinadi.*

*O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakatning butun hududida oliy yuridik kuchga ega, to'g'ridan to'g'ri amal qiladi va yagona huquqiy makonning asosini tashkil etadi.*

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 15-modda.



**KASB FIDOYISI**

# TALABCHANLIKNI HAM O'RNIGA QO'YADI

**Erta tong. Konimex tumanida bepoyon sahro kengliklaridan bosh ko'targan boboquyosh tevarak atrofnı asta-sekin yoritib, nuriga chulg'ayapti.**



Podpolkovnik Sherzod Sanaqulov xizmat oldi yo'riqnomasiga otlanar ekan, bugun rejalashtirgan ishlarini bir-bir xayolidan o'tkazdi. Yo'riqnomaga chog'ida hududning kriminogen vaziyatiga ko'ra tahliliy natijalarni, tuman IIB rahbariyatining jinoyat sodir etishga moyil shaxslar bilan alohida ishlash borasidagi topshiriqlarini yon daftariga yozib oldi. Lavhamiz qahramoni ayni paytda Konimex tumani IIB JXX HPB profilaktika katta inspektori lavozimida xizmat olib boradi. Qariyb 17 yillik boy xizmat tajribasiga ega

podpolkovnik Sherzod Sanaqulov «Yuksalish», «Navro'z», «To'qqiztepa» mahallalari profilaktika inspektorlari faoliyatiga umumiy rahbarlik qiladi. Ularga kasb sirlarini o'rgatib, yo'l-yo'riq ko'rsatib, tavsiyalar beradi. Kezi kelganda talabchanlikni ham o'rniga qo'yadi. Bugun ham ishni shundan boshladi. Keyin esa bevosita o'ziga birlashtirilgan «Sho'rko'l» mahallasiga yo'l oldi. Mahalla raisi, xotin-qizlar faoli, yoshlar yetakchisi, hokim

yordamchisi bilan birgalikda rejadagi xonadonlar ahlining turmush sharoitlarini yaxshilash maqsadida ularning muammolari o'rganilib, hal etish choralarini belgilandi. Yo'l-yo'lakay Baurjan Tashimovning mebel ishlab chiqarish sexiga kirib, yosh ishchilarning mehnat sharoiti bilan tanishishdi.

Kunning ikkinchi yarmida esa hamkor tashkilot mutasaddilari bilan birgalikda shu mahalladagi g'alla-korlarga texnika va yong'in xavfsizligi qoidalariga rioya etishlari lozimligi bo'yicha tushuntirishlar berishdi. So'nggi targ'ibot tadbiri tuman tibbiyot birlashmasiga qarashli 6-sonli

oilaviy poliklinikada tashkil etildi. Ushbu davolash muassasasi xodimlari o'rtasida «Kibermadaniyatni yuksaltirish oyligi» doirasida ijtimoiy tarmoqlardan xavfsiz foydalanish hamda korrupsion holatlarning oldini olish bo'yicha tushuntirishlar olib borildi.

Yozning kuni uzoq. Saxiy quyosh mehnatsevarlarga qarashgan kabi sekinlab botyapti. Shu paytda podpolkovnik Sherzod Sanaqulov ham yana bir xizmat kunini yakuniga yetkazdi.

**Mahliyo XOLOVA,**  
o'z muxbirimiz.

Navoiy viloyati.



**QOROVUL QO'SHINLARIDA**

**Yuragida o'ti bor har bir o'g'lon yoshligidan o'z xalqi tinchligi va xotirjamligi, yurtdoshlarining ozod, farovon hayot kechirishi yo'lida xizmat qilishni xohlaydi. Foziljon Norboyev ham bolalikdan Vatan posboni bo'lishni orzu qilardi...**

Farg'ona viloyatida joylashgan harbiy qismlarning birida yigitlik burchini imtiyozli tavsiyanoma bilan o'tab qaytgach, 2021-yilda Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar institutining sirtqi bo'limiga o'qishga kirdi. 2022-yili Buxoro viloyatining Qorovulbozor tumanida joylashgan IIV Qorovul qo'shinlariga qarashli 7536-harbiy qism 3-batalyonida shartnoma asosida ikkinchi toifali nazoratchi lavozimiga xizmatga qabul qilindi.


Harbiy jamoada oddiy askar F.Norboyevning alohida o'rni bor. Chunki uni barcha birdek o'zimizning shoir deb e'tirof etishadi. Xizmatdan bo'sh paytlari badiiy kitoblar qo'lidan tushmaydi. Taniqli shoirlarimiz Abdulla Oripov, Sirojiddin Sayyid hamda Muhammad Yusufning she'rlarini deyarli yod biladi. Ulardan ilhomlanib, ba'zan o'zi ham she'rlar mashq qiladi. She'rlarida asosan sharafli kasbga va Vatanga bo'lgan mehrini tarannum etadi.

Uning kelajakdagi orzusi bir olam. She'riy mashqlarini to'plam qilmoqchi. Albatta, o'z ustida ishlab, bilimni oshirib, komandirlariday yuqori lavozimlarda faoliyat ko'rsatib, el-yurtiga sadoqat bilan xizmat qiladigan mard o'g'lon bo'lish niyatida.

**Mirzoqul AHADOV,**  
o'z muxbirimiz.

Buxoro viloyati.

## ORZULAR OLAMIDAGI ODAM



### MUHABBAT

**Ko'ngil ko'ngilga tushgan ilk kunda,  
Muhabbat izhordan javob istaydi.  
Eng yorug' kunda ham, ham qora tunda,  
Muhabbat e'tibor, shabob istaydi.**

**Aslida umr bir javobsiz savol,  
Javob topguningcha umr ham zavol,  
Yaratgan ne'matin qilmagin uvul,  
Muhabbat e'tibor, shabob istaydi.**

**Ko'ksingda yuraging yonib tursa ham,  
Dil ishq bulog'idan qonib tursa ham,  
Hijron-u sog'inchdan tonib tursa ham,  
Muhabbat e'tibor, shabob istaydi.**

**Yo'llariga ko'zing tiksang ham har kun,  
Qo'llariga gullar tutsang ham har kun,  
Orzusin amalga oshirsang bir kun,  
Muhabbat e'tibor, shabob istaydi.**

**Foziljon NORBOYEV,**  
oddiy askar.





## Урок духовности и просвещения

# ВЕРХОВЕНСТВО ЗАКОНА – ФУНДАМЕНТ ПОДЛИННО НАРОДНОГО ГОСУДАРСТВА

**Принятие Основного закона Республики Узбекистан в новой редакции путем всенародного голосования на референдуме послужило укреплению конституционных основ строительства Нового Узбекистана, усилению гарантий прав личности, верховенства закона. Данное историческое событие еще раз продемонстрировало политическую зрелость нашего общества.**

Конституция Узбекистана имеет высшую юридическую силу, прямое действие и образует основу единого правового пространства на всей территории страны.

Основной закон – оплот подлинно народного государства, основа стабильного развития и процветания. Он олицетворяет высокий уровень политико-правового мышления граждан, обеспечивает гарантию свободной, мирной и благополучной жизни.

Сегодня в социально-культурной, политической, финансово-экономической сферах осуществляются масштабные преобразования, направленные на реализацию Стратегии Нового Узбекистана, на претворение в жизнь принципа «Во имя чести и достоинства человека».

**Основной закон закрепляет права и свободы человека, принцип верховенства закона, верность идеалам демократии и справедливости. Усиление статуса Узбекистана как правового государства призвано обеспечить: уважение и соблюдение законности в стране; соблюдение соразмерности в применении мер правового воздействия; защиту прав задержанных лиц («Правило Миранды»); повышение роли адвокатуры в судебной системе Узбекистана; расширение возможностей для защиты прав личности, гарантированных Конституцией.**

В целях обеспечения прозрачности и открытости деятельности судебных органов в республике внедрено систематическое опубликование судебных решений на веб-сайте Верховного суда, обзоров рассмотрения судебных дел в порядке кассационного производства. Повышению эффективности судопроизводства способствует национальная информационная система электронного судопроизводства e-sud.

В целях обеспечения законности усилен судебный контроль над досудебным производством. Сегодня применение меры пресечения в виде заключения под стражу или домашнего ареста, отстранение обвиняемого от

должности и др. осуществляется с санкции суда.

Для предупреждения пыток и обеспечения соблюдения прав человека в судебно-следственной деятельности принято десять актов Президента Узбекистана. Действуют общественные группы при Омбудсмане по предупреждению и выявлению случаев пыток.

Оптимизированы квалификационные требования в отношении кандидатов на профессию адво-



ката. За последние годы количество адвокатских формирований увеличилось на треть, а число адвокатов – на 17 процентов.

Приоритетным направлением стала борьба с любыми проявлениями коррупции. Закон «О противодействии коррупции» закрепил основы государственной политики в области предупреждения данного социального зла. На Агентство по противодействию коррупции возложены ответственные задачи по формированию и реализации государственной политики в сфере предупреждения и противодействия коррупции, обеспечения эффективного взаимодействия госорганов, СМИ, институтов гражданского общества.

В рамках конституционной реформы принцип «человек – общество – государство» стал основополагающей идеей. Закреплен статус Узбекистана в качестве правового государства, напрямую накладывающий обязанность государства по обеспечению соблюдения законности.



В Основном законе закреплено, что меры правового воздействия на человека, применяемые государственными органами, должны основываться на принципе соразмерности и быть достаточными для достижения целей, предусмотренных законами. При этом

В обеспечении верховенства закона важную роль занимают органы внутренних дел. Они выполняют ответственные функции по укреплению правопорядка, обеспечению общественной безопасности, профилактике правонарушений и борьбе с преступностью. При этом определены новые механизмы организации их деятельности. Во-первых, это решение в разрезе каждой махаллы вопросов профилактики правонарушений посредством выявления и устранения причин и условий их совершения (принцип «махаллабай»). Во-вторых, это разделение каждого района, города на секторы, отнесение махалл к категориям «зеленая», «желтая», «красная» в зависимости от состояния криминогенной обстановки, задействование всех сил и средств, необходимых для устранения «очагов преступлений». В-третьих, внедрение механизмов комплексного управления и контроля на основе системы «республика – область – район – махалла». В-четвертых, укрепление в сознании сотрудников высоких нравственных качеств, воспитание их в духе преданности служебному долгу.

Основным подразделением обеспечения законности непосредственно на местах являются махаллинские пункты правопорядка. На их базе организуется скоординированная деятельность отраслевых служб территориальных органов внутренних дел, Национальной гвардии и иных государственных органов. При этом ключевая фигура пункта правопорядка – инспектор профилактики.

Деятельность ОВД направлена на защиту прав и интересов граждан. Они преобразовываются в народную профессиональную структуру, действующую в тесном взаимодействии с населением, общественными организациями на основе взаимного доверия и сотрудничества.

**Алимжан МАТЧАНОВ,**  
доктор юридических наук,  
профессор, полковник.





▶ **ФАХРИЙЛАР – ФАХРИМИЗ**

## ОҚСОҚОЛНИНГ ИБРАТЛИ ИШЛАРИ

Истеъфодаги подполковник Санъат Мадраҳимов икки ярим йилдирки Урганч шаҳридаги Ал-Хоразмий номли маҳаллага раҳбарлик қилмоқда. Мазкур ҳудудда 3 минг 400 нафардан зиёд аҳоли истиқомат қилади. Улар 917 та оилага жипслашган ҳолда тинч ва осойишта ҳаёт кечиряпти. Ҳудудда аҳолини ижтимоий-ҳуқуқий ҳимоя қилиш, иш билан таъминлаш, ўқитиш ва касб-ҳунарга йўналтириш, тадбиркорликка жалб этиш каби муҳим масалалар тегишли ташкилотлар билан ҳамкорликда ижобий ҳал этилмоқда.



Суратда: С. Мадраҳимов (ўнгда) туман ҳокими О. Холбоев билан.

Қолаверса, аҳолига савдо ва маданий-маиший хизмат кўрсатиш шохобчаларининг, ишлаб чиқариш корхоналарининг йил сайин кўпайиб бораётгани маҳалланинг ижтимоий-иқтисодий ривожланишида муҳим омил бўляпти. Жорий йилнинг ўтган даври мобайнида бевосита маҳалла оқсоқолининг саъй-ҳаракатлари билан ҳудудда 3 та оилавий, 2 та якка тартибдаги тадбиркорлик фаолияти йўлга қўйилди. Ижтимоий фойдали меҳнат билан шуғулланмаётган 12 нафар фуқаро доимий ва вақтинчалик иш ўрнига эга бўлди. Беш нафар фуқарога имтиёзли банк кредити ажратилди. – Юртимизда бўлаётган кенг

кўламдаги бунёдкорлик ишларида маҳалламиз аҳлининг ҳам муносиб ҳиссаси борлиги кишини қувонтиради, – дейди истеъфодаги подполковник Санъат Мадраҳимов. – Маҳаллада ҳуқуқбузарликлар профилактикаси ва жиноятчиликка қарши курашиш борасидаги ишларни янада такомиллаштириш, бу борада давлат ва нодавлат нотижорат ташкилотлари, шунингдек, жамоат уюшмалари билан ҳамкорликдаги ишларни тизимли равишда ташкил этиш бўйича ишлаб чиқилган йўл харитаси асосида жамоат ташкилотлари вакиллари билан ҳамкорликда манзилли профилактик ишлар олиб борилмоқда. Натижада

уларнинг турмуш тарзида пайдо бўлаётган муаммолар ижобий ҳал қилиниб, ижтимоий фойдали меҳнат жараёнларидаги иштироки таъминланмоқда. Бундай хайрли ишларда профилактика инспектори, майор Сирож Шокиров, ҳоким ёрдамчиси Хурсанд Бобоҷонов, хотин-қизлар фаоли Сайёра Бекчанова, ёшлар етакчиси Тоҳиржон Арипов ҳамда маҳалла фаолларидан Маримбой Ражабов, Гавҳар Жуманиёзова, Малика Болтаева, Муҳаббат Раҳимоваларнинг ҳиссаси катта бўлмоқда. Бундай ҳамкорлик туфайли ҳудуднинг ижтимоий-иқтисодий ривожланиши анча яхшиланиб, жиноят содир этилиши кескин камайишига эришилди ва маҳалламиз «яшил ҳудуд» тоифасига киритилди.

Ўтган йил бошидан маҳаллада рақамли технологиялар, кузатув камераларидан самарали фойдаланиш йўлга қўйилди. Хусусан, маҳалладаги ички кўчаларнинг кириш ва чиқиш жойларига, мактабгача ва мактаб таълими муассасаларига, тадбиркорлик субъектларига, шунингдек, жамоат жойларига кузатув камералари ўрнатилиб, улар профилактика инспекторининг хизмат хонасига интеграция қилинди. Амалиётга жорий қилинган бу янги тизим маҳаллага келиб-кетувчи шахслар ва транспорт воситаларини куннинг исталган вақтида назорат қилиш имкониятини яратди.

Мустақилликнинг 33 йиллигини муносиб тарзда нишонлаш мақсадида «Бир бўлсак – ягона халқимиз, бирлашсак – Ватанмиз!» номли эзгу гоя остида кўплаб маданий-маърифий тадбирлар, учрашувлар, давра суҳбатлари ўтказилмоқда.

Мадраҳимовлар оиласини юртимизда жуда яхши билишади. Лавҳамиз қаҳрамонининг отаси Руслан Мадраҳимов узоқ йиллар ички ишлар органларида самарали хизмат қилиб, полковник унвонида пенсияга чиққан. Онаси эса Ол-

махон Ҳайитова Ўзбекистон халқ артисти, эл суйган санъаткор эди. Санъат Мадраҳимов ана шундай пири бадавлат оиланинг кенжа фарзанди. Акаси Фурқат ҳам кўп йиллар мобайнида Тошкент вилояти ИИББ тизимида хизмат қилиб, майор унвонида пенсияга чиққан. Ҳозирда Тошкент шаҳар Мирзо Улуғбек тумани Шўртепа МФЙ раиси.

Қаҳрамонимизнинг тўнғич фарзанди Муштарийбеғим республика Антикоррупция агентлиги масъул ходимаси, қизи Жаҳонабеғим давлат бошқаруви ва сиёсатшунослик йўналиши бўйича Америка Қўшма Штатларида таҳсил оляпти. Сафдор Шохрумон эса ота изидан бориб, вилоят ИИБ ЖХХ ЖТСБ конвой гуруҳида хизмат қилмоқда.

Истеъфодаги подполковник Санъат Мадраҳимовнинг ички ишлар органларидаги хизмат фаолиятини кўпчилик фахр билан тилга олишди. Вилоят ИИБ Жиноят қидирув бошқармасида, Богот тумани ИИБ бошлиғининг биринчи ўринбосари, Янгиариқ тумани ИИБ бошлиғи лавозимларида хизмат қилган бу фидойи инсон юртимиз осойишталигини таъминлашга муносиб ҳисса қўшди. Содир этилган кўплаб оғир турдаги жиноятларни «иссиқ изида» фош этиш, қидирувдаги жиноятчиларни қўлга олишда фаол иштирок этди. Кўплаб ёш ходимларга касб сир-асрорларини қунт билан ўргатиб, устоз деган шарафли номга муяссар бўлди.

Эзгу ва хайрли ишлар қизгин давом этаётган Ал-Хоразмий номли маҳаллани айланарканмиз, у ердаги ўзгаришларда она Ватанимизга фидойилик билан хизмат қилаётган маҳалла оқсоқоли, истеъфодаги подполковник Санъат Мадраҳимовдек ҳиммати баланд инсонларнинг муносиб ҳиссаси борлиги кишини қувонтиради.

**Худойберган ЖАББОРОВ,**  
ўз мухбиримиз.

Хоразм вилояти.

▶ **YOSHLAR – KELAJAGIMIZ**

## DUNYO KEZAYER, O'ZBEGIM!

**Safdor Murodjon Bozorov bir necha yildan buyon Sirdaryo tumani IIB Migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bo'limida xizmat qiladi. Bu yerga kuniga o'nlab fuqarolar tashrif buyuradi. Ular shunchaki hujjat almashtirish tashvishi bilan kelsa-da, orzu-umidlari, hayoti, turmush tarzi o'zgarayotganini his qilish qiyin emas.**

O'n yetti yoshli mana bu qiz Cho'lto'qaydan. U xorijga chiqish huquqini beruvchi pasport olish uchun kelgan. Ma'lum bo'lishicha, IELTS-



dan yuqori ball to'plagan bo'is ko'plab universitetlar unga grant ajratishini ma'lum qilgan. Qiz Italiyaning Milan shahridagi universitetni tanlabdi. Murodjon unga chin dildan havas qildi. Qizni suratga olib, biometrik ma'lumotlarini tizimga joyladi. Uchto'rt kun ichida hujjat tayyor bo'lishini aytdi.

Bu er-xotin esa Qamaristondan. Ular biznes bilan shug'ullanishlarini aytishdi. Ikki nafar farzandini ham yetaklab kelishgan. Biri o'n yosh, ikkinchisi to'rt yosh. Oilaviy chet elga, dam olishga ketishayotgan ekan. Shuning

uchun barchasiga pasport rasmiylashtirish taqozo etilardi. Jarayonlar nihoyasiga yetgach, oila mamnun holda u bilan xayrlashdi.

Shunday paytlarda safdor Murodjon Bozorov ich-ichidan sevinadi. Axir, yetti-sakkiz yil oldin xorij eshiklari bu qadar ochilmagan, odamlar sayyohlik, ta'lim olish uchun chetga chiqish imkoniyatiga bu qadar ega emas edi-da. Shu bo'is Migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bo'limi xodimi sifatida cheksiz faxr hissi tuydi...

**O'z muxbirimiz.**  
Sirdaryo viloyati.



## CHEKKA HUDUDLARDA

## XALQ ISHONCHIDA AKS TOPIB

Olis Qo'shrabot tumanidagi 2600 nafardan ziyod aholi yashaydigan «Do'stlik» mahallasida profilaktika katta inspektori, kapitan Muhammad Ergashev 4 yildan buyon xizmat qilib keladi. Uning ish kuni bo'limda o'tadigan rejalashtirish yig'ilishidan boshlanadi. Rahbariyatdan ko'rsatma olgach, o'ziga birlashtirilgan hududga yo'l oladi.

Uzoq masofa, tarqoq joylashuv ba'zan manzilga tezda yetib borishga biroq to'sqinlik qilishi mumkin. Ammo o'z xizmat vazifalarini sidqidildan bajarishni odat qilgan Muhammad uchun bu bahona bo'la olmaydi.

Aytgancha, joriy yilning o'tgan davrida «Do'stlik» mahallasida bironta ham jinoyat sodir etilmadi. Bunga qanday erishilgani haqida so'raganimizda, profilaktika katta inspektori shunday javob berdi:

– Umuman olganda, mening asosiy vazifam huquqbuzarliklarning oldini olish va aniqlashdan iborat. Ya'ni, hamma ish odamlar bilan muloqot qilishga qaratilgan. Men ularga nima qilish mumkin va mumkin

emasligini tushuntiraman. Fuqarolar bilan doimiy muloqot qilish, ularga hamdard bo'la olish, muammolariga befarq bo'lmaslik ham muhim ahamiyatga ega. Bularning hammasi kutilgan natijalarga erishishda yordam beradi.

Kapitan Muhammad Ergashev xizmat faoliyatida aholi, ayniqsa, yoshlarni, muqaddam sudlangan fuqarolarni ijtimoiy himoyalashga alohida e'tibor qaratmoqda. Yil boshidan buyon 20 dan ziyod oilaga biznes bilan shug'ullanishi uchun imtiyozli kreditlar, ba'zilariga esa motokultivator va tikuv mashinalari berildi.

Biz bilan suhbat chog'ida Muhammad Ergashev aholining ishonchini oqlash



uchun profilaktika inspektori qanday fazilatlariga ega bo'lishi kerakligi haqida so'z yuritdi.

– Hurmat va e'tibor qozonish uchun odamlarga hurmatda bo'lish kerak,

– deydi u. –Murojaat qilgan har bir fuqaroni diqqat bilan tinglash, muammosini hal qilishga yordam berish lozim. Ana shunda odamlar sizga ishonadi. Zero, bizning sohada kasbga sadoqat

xalqning ishonchi bo'lib akslanadi.

**Zamira BOLTAYEVA,**  
o'z muxbirimiz.  
Samarqand viloyati.

## SOHAVIY XIZMATLARDA

## EKSPERT ADASHMASLIGI KERAK

Jizzax shahrining Mirzo Ulug'bek mahallasidan Sharof Rashidov tumanining «Pastki so'loqli» mahallasi tomon ildamlayotgan «Zil» halqa bo'yab aylanma harakatni amalga oshirgan «Kamaz»ning yon tomoniga urildi. Surishtiruv jarayonida hodisa sababchisi bo'lmish haydovchi to'xtatish tizimi pand berganligini bildirdi. Darhaqiqat, dastlabki o'rganishlar «Zil»ning tormozi ishlamaganligi yoxud haydovchining to'xtatish tepkisini bosganligini ko'rsatardi.



Shu bois tergovchi masalaga aniqlik kiritish maqsadida ekspert-kriminalistga murojaat qildi. O'z navbatida, ekspert-kriminalist jarima maydoniga joylashtirilgan yuk mashinasining texnik holatini o'rgandi. So'ng avtomashinani harakatga keltirib, bir necha bor to'xtatish tepkisini bosdi. Tizim bexato ishlayotgandi, bu haydovchining yolg'on so'zlayotganiga ishora qilardi...

– Yo'l-ulov hodisalari bilan bog'liq trasologiya ekspertizalarini o'tkazish boshqa turdagi kriminologik tadqiqotlar singari mutaxassisdan katta bilim va tajriba talab qiladi, – deydi Jizzax viloyati IIB Ekspert-kriminalistika markazi katta eksperti, kapitan Rufat Bozorboyev. – Chunonchi, soha mutaxassislari to'qnashuv natijasida to'kilgan shisha, polietilen qoldiqlari, chang, transport vositalaridan oqqan moy, suv, avtoulavlarning sirpanish izlari va shikastlarni tahlil qilish hamda o'lchash va hisoblash yo'li bilan yo'l-ulov hodisasining qanday ro'y berganligi, ko'ngil-

sizlik sabablari, voqea ishtirokchilarining javobgarlik darajasi, transportga yetkazilgan zarar hajmini aniqlaydilar. O'z navbatida ekspert xulosasi javobgarga nisbatan qonuniy chora ko'rish, ziyonni qoplash, sug'urta bilan bog'liq ishlarning asoslangan tarzda amalga oshirilishiga omil bo'ladi.

Soha vakillari yo'l-ulov hodisalarini tadqiq qilish jarayonida avtomashinaning harakatlanish, tormozlash hamda rul qismlarini chuqur tekshiruvdan o'tkazadilar. Bundan tashqari, yo'llarning holati, yo'l belgilarining mavjudligi, qor, yomg'ir, tuman singari iqlim bilan bog'liq vaziyat hamda ko'rishga xalaqit qiluvchi boshqa jihatlar e'tiborda tutiladi. Yana bir ma'lumot: joriy yilning o'tgan davrida viloyat IIB ekspert-kriminalistika markazi mutaxassislari tomonidan 200 dan oshiq trasologiya va avtotexnika ekspertizalari o'tkazilgan.

**Alijon ABDUSATTOROV,**  
o'z muxbirimiz.  
Jizzax viloyati.





Пример для сослуживцев

## ХАРАКТЕР, ЗАКАЛЕННЫЙ СЛУЖБОЙ

**Командир отделения первой группы отряда патрульно-постовой службы первой региональной территории УВД Ферганской области сержант Сойибжон Жураев 28 лет с честью выполняет возложенные на него обязанности, внося весомый вклад в обеспечение безопасности граждан.**

Деятельность в органах внутренних дел он начал в 1996 году.

– Для начинающего сотрудника важно обрести уверенность, выработать необходимые навыки, – говорит Сойибжон. – В этом мне содействовали наставники капитан Абдурашид Маллабоев, сержант Кобилжон Маматов, старшие сержанты Гофуржон Зикиров и Муроджон Гофуров. Они помогли найти правильный подход к решению сложных ситуаций, встречающихся в процессе работы. Сейчас уже молодые коллеги обращаются ко мне за советом. Стараюсь им ни в чем не отказывать, передаю опыт.

Группа, в составе которой служит Сойибжон, отвечает за обеспечение общественной безопасности в Маргилане. Этот древний город известен



своими ремесленниками, памятниками архитектуры, объектами нематериального культурного насле-

дия. В последние годы он все больше привлекает местных и зарубежных туристов.

Сойибжон Жураев принимает активное участие в раскрытии преступлений, задержании лиц, находя-

щихся в розыске. Недавно командир отделения вместе с подчиненными рядовыми Билолдином Асадуллаевым и Анваржоном Юлчиевым установили местонахождение объявленного в розыск гражданина А. А., доставили его в ОВД.

У Сойибжона Жураева трое детей, шесть внуков. Сын Абдулло пошел по стопам отца. Он работает помощником инспектора профилактики в городе Фергане.

День сержанта Сойибжона Жураева начинается с инструктажа подчиненных перед их отправкой к месту несения службы. Затем командир отделения сам осуществляет обход территории, дает при необходимости советы, оказывает помощь молодым сотрудникам. Подчеркивает необходимость быть бдительными, вежливыми в обращении с жителями и гостями города.

**Абдусит СИДИКОВ,**  
соб. корр.  
Ферганская область.

Из следственной практики

## ЗАМАНЧИВЫЕ УСЛОВИЯ

**Лола часто просматривала объявления о продаже квартир в домах, застройка которых ведется в различных районах столицы. Приобрести новую квартиру было давним желанием, но для его исполнения не хватало определенной суммы денег.**

Затем оформлялся кредит в одном из банков под 12 процентов годовых, где данное имущество ставилось под залог. После недолгих раздумий, Лола решительно набрала указанный в объявлении номер. Ей ответил мужчина, который представился Баходиром. Лола заинтересовалась: «Реальны ли опубликованные условия?».

– Вы нам не доверяете? У нас столько довольных клиентов, которые стали обладателями желаемой недвижимости, – ответил мужчина. – Можете подъехать в офис... Почитайте на сайте отзывы, оставленные людьми, которым мы помогли.

Лола почувствовала себя виноватой за то, что поставила под сомнение добропорядочность специалистов по недвижимости. Она извинилась и попросила адрес офиса. Тон голоса мужчины смягчился, он назвал адрес и

даже пообещал скинуть локацию. На следующий день Лола направилась по названному адресу. Лаконичная вывеска с изысканным дизайном создавала впечатление, что здесь слова не бросают на ветер. В офисе, расположенном на первом этаже многоквартирного дома, царил атмосфера комфорта и уюта. У входа к Лоле подошла администратор и, узнав причину посещения, направила в один из кабинетов, предварительно позвонив кому-то. В кабинете сидели двое молодых мужчин. Поздоровавшись, они представились: одного звали Ниёз, а второго Шухрат.

Ниёз подробно рассказал об условиях сделки, упомянув, что риск практически сведен к нулю. В подтверждение слов он рукой показал на стопку договоров, назвав их красноречивым доказательством порядочности в работе с клиентами. Шухрат все это

время кивал, подтверждая слова Ниёза. Несколько раз разговор прерывался звонками, поступавшими на телефон Шухрата. Извиняясь, Шухрат поднимал трубку и отдавал распоряжения звонившим о передаче ключей и документов «владельцам квартир».

Сомнения Лолы окончательно рассеялись, она назвала адрес, где располагалась квартира, которую хотела бы приобрести. Был составлен и подписан договор, по которому Лола обязывалась в течение трех рабочих дней внести причитающиеся денежные средства на расчетный счет фирмы, что ею и было сделано. Оставалось дождаться, когда ей вручат ключи от недвижимости и оформят кредит в банке. Но по каким-то непредвиденным обстоятельствам, которые каждый раз озвучивали Ниёз и Баходир, данное событие переносилось на новый срок. По истечении

определенного времени женщина была вынуждена обратиться с заявлением в правоохранительные органы. Во время следствия Лола узнает, что не только она попала на удочку злоумышленников. Потерпевшими по уголовному делу были признаны пять человек, перед каждым был разыгран спектакль. Общий ущерб составил 1 307 032 330 сумов.

Приговором Яккасарайского районного суда по уголовным делам 38-летний Баходир, 30-летний Шухрат и 26-летний Ниёз признаны виновными в совершении преступления, предусмотренного ст. 168 («Мошенничество») УК. Им назначено наказание в виде лишения свободы.

Уважаемые граждане! Остерегайтесь заманчивых предложений: ими могут оказаться сети, расставленные мошенниками для доверчивых людей.

**Элвира САЛИЕВА,**  
сержант.



В один из дней, в очередной раз пролистывая новостную ленту в интернете, она прочла объявление с достаточно заманчивым предложением. В нем говорилось, что фирма берет на себя обязательства по выкупу недвижимости, которую хотел бы приобрести клиент. Первоначально от клиента требовалось перевести лишь 25 процентов от стоимости квартиры на расчетный счет фирмы и 4 процента за услуги, после чего в течение двух недель ключи от приобретенного жилья передавались клиенту.



SULOLA

# QUNDUZOVLARNING UCHINCHI AVLODI

Farg'onada butun umrini ichki ishlar organlari tizimiga bag'ishlab, el-yurt osoyishtaligi yo'lida munosib xizmat qilib kelayotgan sulolalar juda ko'p. Oltiariq tumani «Shodlik» mahallasida istiqomat qiluvchi ichki ishlar organlari faxriysi, iste'fodagi polkovnik Abdumutalib Qunduzov boshlab bergan sulola haqida ham ana shunday iliq fikrlar aytish o'rinli.

Yaqinda 75 yoshni qarshi olgan Abdumutalib ota ichki ishlar organlaridagi faoliyatini 1976-yilda boshlab, halol mehnati, sabr-matnati, bilim va tajribasi tufayli oddiy inspektorlikdan viloyat IIB boshlig'i o'rinbosari darajasigacha bo'lgan sharaflil yo'lni bosib o'tdi.

Polkovnik Abdumutalib Qunduzovning rahbarlik davri mustaqilligimizning dastlabki yillariga to'g'ri keladi.

Ayniqsa, Qo'qon shahar IIB boshlig'i bo'lib ishlagan paytlarda juda ko'p xayrli ishlarga bosh-qosh bo'ldi. Shahar Ichki ishlar boshqarmasining hozirgi 3 qavatli binosi polkovnik Abdumutalib Qunduzovning rahbarlik yillarida qad rostladi.

2006-yilda shogirdlari ehtiromida nafaqaga chiqqan Abdumutalib ota hozir farzandlari va nabiralari rohatini ko'rib, keksalik gashtini surmoqda.

O'g'li, podpolkovnik Murodjon Qunduzov ota kasbini munosib davom ettiryapti. Yozyovon tumani IIB

boshlig'i lavozimida samarali faoliyat ko'rsatdi. Kuni kecha sinovlardan muvaffaqiyatli o'tib, IIV Akademiyasi magistraturasiga qabul qilindi.

Quvonarlisi shundaki, ushbu fayzli oilada birin-ketin sulolaning munosib davomchilari kamolga yetmoqda. Murodjon Qunduzovning o'g'li Muhammadjon IIV Farg'ona akademiyasida tahsil oldi. Yaqinda esa sinovlardan muvaffaqiyatli o'tib IIV Akademiyasiga kursantlar safiga qabul qilindi.

– Bobo sifatida nabiramdagi kasbimizga bo'lgan havasni, intilishni ko'rib, to'g'risi, shukrona keltiryapman, – deydi A. Qunduzov.

Muhammadjon bolaligidan sportning karate turi bilan muntazam shug'ullanib keladi. Shu yo'nalishda viloyat va respublika darajasidagi nufuzli musobaqalarda ham munosib ishtirok etib, qator medallar shodasini qo'lga kiritgan. Sport bilan do'st tutingan shijoatli yigit bobosi va dadasi kabi



el-yurtning fidoyi o'g'lioni bo'lib, Vatanimizga munosib xizmat qilishga astoydil bel bog'ladi.

– Bobomning o'g'it va maslahatlarini tinglab kamolga yetdim, – deydi bo'lajak yurt posboni. – U kishi biz nabiralarni doim kitob o'qishga, ilm olishga, kamtar va halol bo'lishga undaydi. Bobom va dadamdagi yuksak bilim, insoniy fazilatlar, Vataniga va tanlagan kasbiga sadoqatni ko'rib, men ham ularning izidan borishga qat'iy ahd qildim.

Muhammadjon hozirda kursantlar safida dala o'quv mashg'ulotlarida ishtirok etmoqda. Uning ko'zlaridagi olovni, qalbidagi shijoatni ko'rib, Qunduzovlar sulolasi bardavom bo'lishiga ishonch ortadi.

**Abduvosit SIDIQOV,**  
o'z muxbirimiz.

Farg'ona viloyati.

## Hayot

Odamzod qiziq. Juda ko'pchilik o'limni kasal bo'lganida, adolatni esa adolatsizlikka duch kelganidagina esga oladi. Shuning uchun hayotning ta'mini u qadar sezmasa kerak.

\*\*\*

Oynaga qaragan ko'z o'tkir, ko'zguga qaragan ko'z so'qir bo'ladi.

\*\*\*

Daraxt bir joyda ko'karadi, deb yoshlarga o'g'it beramiz. Lekin negadir odam daraxt emasligini, mabodo yaxshi ko'karsin deb, «tagiga suv quysa», qurib qolishini aytmaymiz.

## Saboqlari

\*\*\*

80 yoshli chol 75 yashar ukasiga davrada sal ko'proq gapirganida, faloncha-a, deb tomoq qirib qo'ydi. Mana bu haqiqiy milliy tarbiya.

\*\*\*

Kishining taqdiri ustidan kulib bo'lmaydi. Havas qilishgayam shoshmaslik kerak.

\*\*\*

Cho'ntagidan bir pul chiqmagan odam emas, qalbidan bir chimdim vijdon topilmagan odam o'zini kambag'al, nochor desa bo'ladi.

**Shuhrat RO'ZIYEV,**  
iste'fodagi podpolkovnik.





MULOHAZA

## USTOZLARGA HURMAT QAYERDA QOLDI?

**Ustozlarni ulug'lash, ularga hurmat va ehtirom ko'rsatish xalqimizning azaliy qadriyatlaridandir. Davlatimizning yuksak unvonlari bilan taqdirlangan ustoz-murabbiylar safi yildan-yilga kengayayotgani kishini quvontiradi. Zero, bergan bilimlari uchun hech qachon tovon so'ramaydigan kasb egalarini qancha ko'klarga ko'tarsak shuncha oz. Yurtboshimizning «Sizlar dunyodagi eng bebaho boylik va boqiy merosni yaratish, uni xalqimizga, unib-o'sib kelayotgan yosh avlodimizga bezavol yetkazish yo'lida chinakam fidoyilik ko'rsatib mehnat qilayotgan ulug' insonlarsiz», deya pedagoglarga qarata aytgan so'zlari zahirida shubhasiz ulkan haqiqatlar aks etgan.**

Hozirgi globallashuv davrida dunyo miqyosidagi reytinglarda o'qituvchilik sharaflari, shu bilan bir qatorda, kuchli depressiyani keltirib chiqarish xavfi yuqori bo'lgan kasb sifatida e'tirof etiladi. So'ngi yillarda mamlakatimizda o'qituvchilar qadriyatini oshirish, ularga bo'lgan e'tiborning ko'tarilishini ta'minlashga qaratilgan ishlarni sanaydigan bo'lsak, natija juda yomon, deb ayta olmaymiz. Majburiy mehnatning barcha shakllari bekor qilinganligi, jumladan, o'qituvchilarning o'z ishidan tashqari, faoliyatiga umuman aloqador bo'lmagan boshqa vazifalarga jalb qilinishi holatlariga deyarli barham berilgani misolida so'zlarimizni asoslashimiz mumkin.

Yana bir misol, o'qituvchini turli hasharlar, paxta terimi yoki hokimlik uyushtiradigan har xil tadbirlarga majburan jalb qilish masalasida qat'iy taqiqlar qo'yilgani, ushbu taqiqlar amalda ishlayotganligi haqiqatan ham, ustozlarga bo'lgan e'tibor sezilarli oshganligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, ta'lim jarayoniga turli tashkilotlarning aralashuvi kamayganligini seza oldik. Bundan tashqari, tinimsiz izlanayotgan, toifasini o'z vaqtida oshirib borayotgan, o'quvchilari turli Xalqaro hamda mahalliy fan olimpiadalarida yuqori natijalar ko'rsata-



yotgan murabbiylarga ish haqiga qo'shimcha ravishda ustamalar to'lab berilishi ularning mehnatiga yarasha rag'bat bo'lib, yanada oldinga intilishga undamoqda.

Endi asosiy masalaga qaytsak. Ustozlar barchamizning qo'llab-quvvatlovimizga muhtoj. Negaki, bugungi davr o'quvchilari, ota-onalari hatto yengilgina tarbiyaviy saboqlarni ham juda og'riqli qabul qiladigan bo'lib qoldi. Ba'zan eshitib dilimiz og'riydi. O'qituvchi, o'quvchi va ota-ona o'rtaida biz uchun arziyas tuyiladigan sabablar tufayli turli ziddiyatli holatlar yuzaga keladi. Xo'sh, bugun o'qituvchi tajribasizlik qilib

o'quvchining tilini topolmayaptimi yoki ota-onalar farzandlarini haddan ziyod erkalatib yuboryaptimi? Nega o'quvchi bilan chiqish ketish bunchalar qiyin bo'lib qoldi? Shu kabi savollar ko'p o'ylantiradi.

Bizningcha, bu zamonaviy axborot texnologiyalarining keng kirib kelayotganligi va axborot

kun bolalarining talablari yoshiga nisbatan ancha ilgari ketayotganligini inkor etolmaymiz. Bu ham yetmagandek, dars bilan birga, ta'lim-tarbiya masalasi ham mutlaq o'qituvchi zimmasida, degan qarash ota-onalarda shakllanib qolyapti. To'g'risi, bunda o'qituvchiga ikki hissa qiyin bo'ladi.

Yaqin-yaqingacha o'z farzandini shogirdlikka berayotgan ota-ona ustozga «Eti sizniki, su-yagi bizniki» deya ishonch bildirdi. Bu qadriyat yillar davomida avlodan-avlodga o'tib kelayotgan o'zbeklarga xos an'ana edi. Ha, «EDI». O'tgan zamonda gapirishni qanchalik istamasam-da, biz guvohi bo'layotgan, ko'ngilni xira torttiruvchi ayrim manzaralar shunga majbur qilmoqda. Hazrat Navoiy «Agar shogird shayxul-islom, agar qozidur, Agar ustoz rozi – Tangri rozidur» deganida qanchalar haq edi. Hatto Iskandar Zulqarnayn ham o'zi ishg'ol qilgan yurtining taxtiga birinchi bo'lib ustozini o'tqazganligi borasida tarixiy manbalarda ma'lumotlar uchraydi. Bir kuni undan: «Nima uchun bunday qilasiz?» deb so'rashganida: «Ota-onam tug'ilishimga, ustozim esa yuksalishimga sababchi bo'lganlar», degan. Shunday ekan, ustozlarni qadrlaylik. Hamma mas'uliyatni ularning zimmasiga tashlab qo'yamaylik. Farzandlarimizga esa ularni hurmat qilishi kerakligini uqtiraylik. Alaloqibat, «Ustozlarga hurmat qayerda qoldi?!» degan so'zlarni qo'llashimizga asos qolmasin!

**Abror POYONOV,**  
o'z muxbirimiz.

JINOYAT VA JAZO

**Bitta xato, agar u tuzatilmasa, keyingilarini yetaklab keladi, deyishadi. Hayotda buning ko'p bor tasdig'ini ko'rganmiz. Samariddin (ismlar o'zgartirildi) ning ham bir qilgan xatosi keyingilariga sabab bo'ldi.**

Bir necha yillar oldin jinoyat sodir qilib, jazo muddatini o'tagan Samariddin 2021-yilda ozodlikka chiqdi. Denov tumanidagi uyida, yaqinlari bilan biroz muddat birga turgach, ish izlay boshladi. Yaxshi hunari bor: oldin novvoylik qilib, ro'zg'or tebratgan. Uning xayoliga Termiz shahriga borib, novvoychilik qilsam-chi, degan fikr keldi va darrov ishga kirishdi.

Termizga kelib, bir novvoyxonaga joylashdi va shu yerda non pishirib, halol mehnat bilan pul topa boshladi. Ikki yil binoyi yurdi. Biroq shundan so'ng eski damlarini qo'rsadi. Fikri buzilib, giyohvand modda iste'mol qilish uchun eski tanishlarini izlay boshladi.

Bir tanishi unga bu borada yordam berishini aytib, gashish va biroz miqdorda opiy giyohvandlik moddasini keltirib berdi. Samariddin giyohvandlik moddalarini yashirish chorasini izladi va o'ylay-o'ylay axiyri, Denovdagi uyiga qarab jo'nadi. U yerda biroz yashab, giyohvandlik moddalarining

yoniga xolavachchasi Akbar o'zining «Cobalt»ida kelib to'xtadi va undan qayerga ketayotganini so'radi. Samariddin Termizga borayotganini bildirgach, Akbar agar yonilg'i quyib bersa, o'zi mashinasida eltib qo'yishi mumkinligini aytgach, bu taklif Samariddinga ham ma'qul bo'ldi.

Ikkovlon yo'lga chiqdi. Ular Jarqo'rg'on tumani hududiga yetganlarida, avtomobillarga yonilg'i quyish shoxobchasiga kirib chiqishdi. Va ko'p o'tmay yo'lida ularni ichki ishlar organlari xodimlari to'xtatishdi. Tintuv chog'ida esa mashina saloni ichidagi qutida yelim xaltaga o'ralgan 100,32 gramm opiy, 183,57 gramm gashish giyohvandlik vositasi borligi aniqlandi. Ashyoviy dalillar shu yerning o'zida hujjatlashtirib olingach, Samariddin o'z aybiga iqroq bo'ldi. Qonun uning qilmishiga yarasha yana o'z hukmini o'qidi.

**Fozil XOLMO'MINOV,**  
mayor.  
**Feruza RAHMONQULOVA,**  
o'z muxbirimiz.

Surxondaryo viloyati.

## XATONI TUZATMOQ ZARUR

bir qismini ko'zdan pana joyga berkitib qo'ydi. Shundan so'ng yana Termizda novvoychilik qilishni davom ettirdi.

Hech qancha muddat o'tmadi, Samariddinning xumori tutdi va uyiga borib, yashirib qo'ygan «xalokori»ni oldi-da, Termizga qaytib ketish uchun yo'lga chiqdi. Mashina kutib turgan vaqtida uning



## ■ Андижанская область

**СИЛА И ЗНАНИЯ – ГЛАВНОЕ ДЛЯ СПЕЦНАЗА**

**Сотрудники мобильного отряда оперативного назначения (МООН) выполняют важные задачи по борьбе с терроризмом и преступностью, оберегают покой граждан, проводят профилактические мероприятия.**

Старший специалист старший сержант Музаффаржон Усмонов уроженец Джалакудукского района. В органах внутренних дел 13 лет. Его наставником в спецподразделении был старший сержант Улугбек Исмоилов.

Сегодня и сам М. Усмонов является наставником молодежи. Его ученики – сержант Ахрор Зохилов и рядовой Санжар Фозилжонов служат плечом к плечу, перенимают у него опыт и знания, вместе занимаются кикбоксингом, самбо, рукопашным боем. Музаффаржон Усмонов учится на заочном отделении Андижанского государственного университета.

Старший специалист старший сержант Зафаржон Ашуров с 2016 года служит сотрудником МООН. Он воспитал немало достойных учеников, таких как старшие сержанты Абдулхаким Абдулазизов и Элдор Тургунов. В свободное



**На снимке:** старший сержант З. Ашуров (в центре) с коллегами рядовым С. Фозилжоновым и старшим сержантом М. Усмоновым.

от службы время занимается боксом, учится на заочном отделении Университета общественной безопасности Республики Узбекистан.

Рядовой Санжар Фозилжонов начал службу в отделении патрульно-постовой службы. Вскоре молодой сотрудник был принят в мобильный отряд оперативного назначения. Старший специалист С. Фозилжонов учится на втором курсе заочного факультета Академии МВД. Мечтает стать офицером и продолжить службу в подразделении уголовного розыска.

Спецподготовка, которую ежедневно проходят бойцы подразделения, призвана поддерживать отличную форму, учит сотрудников действовать как единое целое.

В ходе учений вырабатывается командный дух. Силовики всегда в боевой готовности, в любой момент готовы выполнить задание.

**Борис КЛЕЙМАН,**  
соб. корр.

Андижанская область.

## ★ Ночные рейды



## ■ Навоийская область

**Служба общественной безопасности УВД области организовала ночные рейды. Цель – обеспечение безопасности на дорогах.**

Один из таких рейдов проведен на центральном проспекте областного центра. Личный состав службы проверял водителей на предмет алкогольного опьянения, наличие колюще-режущих предметов, осматривал техническое состояние транспортных средств. С участниками дорожного движения проводились профилактические беседы.

Сотрудники выявили ряд нарушителей, в том числе несовершеннолетних, управлявших автомобилями. В отношении игнорировавших указатели и знаки, превышавших скорость приняты соответствующие меры.

Подобные рейды продолжаются в городах и районах области.

Соб. корр.

## ■ Джизакская область

**СТРЕМЛЕНИЕ  
ПОМОЧЬ**

**В области, как и по всей стране, результативно прошло профилактическое мероприятие «Турмуш» по предупреждению семейно-бытовых правонарушений.**

Оно было организовано во исполнение меморандума от 5 мая 2024 года, заключенного между МВД Республики Узбекистан и Ассоциацией махаллей республики. Наряду с сотрудниками органов внутренних дел в нем приняли участие ответственные секторов, активисты махаллей, представители общественности.

Изучены проблемы 1 749 неблагополучных семей, выяснены причины частых ссор и разногласий. Благодаря действенным мерам удалось предотвратить разводы 135 семей, в 40 случаях урегулированы споры, связан-

ные с разделом имущества. В 119 ситуациях достигнуто примирение супружеских пар и восстановлены отношения между близкими родственниками. За правонарушения на семейно-бытовой почве на учет в органы внутренних дел взяты 182 человека.

Оказана материальная, юридическая и психологическая помощь 8 гражданам, оказавшимся в сложных социальных условиях, 21 жертве насилия. Пять лиц направлены в реабилитационные центры. По итогам подворного изучения 40 жителям выделена материальная помощь, 16 человек трудоустроены.

Соб. корр.





SOHA FIDOYISI

## VAQT – OQAR DARYO

**Mirsagat Djalilov ichki ishlar organlaridagi faoliyatini 1999-yil mart oyida boshlagan edi. Vaqt oqar daryo ekan. Shunga ham hash-pash deguncha chorak asr bo'libdi. O'tgan davr ichida u IIV Huquqiy statistika va tezkor-hisob ma'lumotlar bosh markazi katta muhandisi, katta mutaxassisi, bo'linma boshlig'i kabi lavozimlarda samarali xizmat qildi.**

Ichki ishlar organlaridagi ko'p yillik faoliyati davomida ko'plab xodimlarga ustozlik qildi. Bo'lim boshliqlari, podpolkovniklar G. Akbarova va R. Ahmadjonov, bosh mutaxassis, podpolkovnik A. Xayrutdinov, kichik mutaxassis, safdor B. Bahromov shular jumlasidandir.

Yaqinda podpolkovnik M. Djalilov izzat-ikrom bilan pensiyaga kuzatildi. Kuzatuv marosimida so'zga chiqqan markaz boshlig'i, polkovnik B. Karimov Mirsagat Urinbayevich o'z kasbining ustasi bo'lganligini ta'kidlab, har kimga ham tanlagan sohasida ana shunday obro'-e'tibor orttirish nasib etishini tiladi.

O'z muxbirimiz.



BARCHASI BOLALARGA

## QUVONCH MASKANI



**Gulistondagi 150 nafar bolajonni o'z bag'riga sig'dira oladigan Sirdaryo viloyati IIBga qarashli «Bulbulcha» MTTda kelajagimiz davomchilari uchun barcha sharoitlar yaratgan.**

Bog'cha 2022-yilda kapital ta'mirlanib, mutlaqo yangi qiyofaga ega

bo'ldi. Uning tashqi interyeridan tortib mashg'ulotlar xonasi, yotoqxona va oshxona qayta jihozlandi.

– «Bulbulcha»da 10 ga yaqin millat vakillarining farzandlari tarbiyalanadi. Mashg'ulotlarimizda bolajonlarning aqliy qobiliyatini o'stirish, bilim olishlarini rag'batlantirishga harakat qilamiz, – deydi bog'cha tarbiyachisi Norbuvi Abdu-

rasulova. – Bu esa o'z samarasini bermay qolmayapti.

Haqiqatan ham, o'tgan yili MTT o'rtasida bo'lib o'tgan mental arifmetika bo'yicha respublika olimpiadasida bog'chani uch nafar tarbiyalanuvchisi sovrinli o'rnlarni qo'lga kiritgan. Gimnastika, shaxmat kabi sport musobaqalarida ham bolajonlar muassasa sharafiga munosib himoya qilishgan.

«Bulbulcha» MTTning ikkinchi qavatidagi bayram tadbirlari o'tkaziladigan zal bolajonlarning eng sevimli joyi. Bu yerda raqs tushish, qo'shiq kuylash, turli sahna ko'rinishlarini yaratish ularga olam-olam zavq bag'ishlaydi.

Yo'l harakati qoidalarini o'rgatish maqsadida muassasa hovlisida yaratilgan maydonchada svetofor, piyodalar o'tish joylari, ko'chalar o'ziga xos tarzda imitatsiya qilingan.

– Bog'chaga xodimlarimiz tez-tez tashrif buyurib turishadi, – deydi Sirdaryo viloyati IIB YHXB Axborot xizmati rahbari, katta leytenant Said-

ahmad Iskandarbekov. – Yo'l harakati qoidalarini o'rgatishga qaratilgan «Quvnoq svetofor» nomli o'yinni bolajonlar intiqlik bilan kutishadi.

Bog'cha hovlisidagi o'yin maydonchasi ham havas qilgulik darajada. Arg'amchi va kichik attraksionlar doim gavjum.

– Qizalog'im besh yoshda, – deydi Salima Karimova. – U yaqinda gimnastika bo'yicha shahar birinchiligida chempionlikni qo'lga kiritdi. Bunda aynan bog'cha tarbiyachilarining o'rni katta bo'ldi. Buning uchun o'z minnatdorligimni bildirmoqchiman.

Sirdaryo viloyati IIB mas'ul xodimlari kelgusi avlod vakillarining komil inson bo'lib yetishishlari uchun birdek g'amxo'rlik qilishadi. Aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish, bog'cha ta'minotida uzilishlarga yo'l qo'ymasligi ularning doimiy nazoratida. Bu esa kelgusi avlod vakillari ishonchli qo'llarda ekanini anglatadi.

**Abdurahmon MUSTAFOQULOV,**  
o'z muxbirimiz.





## OYLIK DOIRASIDA

## NAMANGAN VILOYATI

Kibermadaniyatni yuksaltirishga qaratilgan targ'ibot tadbirlari boshlanganiga uch yil bo'ldi. Ushbu xayrli tashabbus Namanganda 2022-yilda start olib, aholining bu boradagi bilimlari oshirilgan, ehtiyotsizlik oqibatida yoki ishonuvchanligi tufayli firibgarlar tuzog'iga ilinib qolishi mumkinligi haqida ogohlantirilgan edi. Ushbu tashabbus keng quloqch yoyib, mana uchinchi yilda tadbir oylik tarzida tashkillashtirildi.



Viloyatda kiberjino-yatlarning oldini olish va aholining kiberolamdagi tahdidlarga immunitetini oshirish maqsadida 1–30-iyul kunlari «Kibermadaniyatni yuksaltirish oyli» – «Cyber-month» doirasida kompleks targ'ibot-tash-

viqot tadbirlari qizg'in ruhda tashkil etildi.

Oylik doirasida odamlarni kibertahdidlardan ogohlantirish, qamrovni kengroq olish, alohida faollik va tashabbuskorlik ko'rsatgan fuqarolarni taqdirlash maqsadida turli sovrinli

ko'rik-tanlovlar o'tkazildi.

Kiberxavfsizlik oyli yakunlariga ko'ra, g'oliblarga tashkilotchilarning diplom, qimmatbaho sovrinlari taqdim etildi.

**Alisher TURSUNBOYEV,**  
leytenant.

## TANLOV

## QASHQADARYO VILOYATI

Qashqadaryo viloyatida «Kibermadaniyatni yuksaltirish» oyli yakunlanishi munosabati bilan tanlov g'oliblarini taqdirlash marosimi bo'lib o'tdi. IIV va viloyat IIB mas'ul xodimlari, tanlov ishtirokchilari hamda yoshlar ishtirokida o'tgan tadbir Qarshi davlat universitetining «Yoshlar markazi»da o'tkazildi.

Ta'kidlash lozimki, oylik davomida kibermadaniyatni yuksaltirish borasida vohada keng targ'ibot tadbirlari olib borildi. Xususan, targ'ibot yo'nalishida tayyorlangan kontentlar internet ijtimoiy tarmoqlariga joylashtirilib, 3 million 200 mingga yaqin kishini qamrab oldi. Qolaversa, 13 ta nominatsiyadan iborat tanlov ham o'tkazildi va unda barcha aholi vakillari, hatto xorijda mehnat qilayotgan vatandoshlar ham faol ishtirok etdi.

Tantanali tadbir yakunida tanlovning «Firibgarlardan ehtiyot bo'ling!», «Eng yaxshi



milliy kontent», «Stop! Cybercrime», «Al-Xorazmiy avlodlari», «Kibertahdidlardan ogohlantiruvchi rasmlar», «Hajviy roliklar», «Internet tarmog'idan xavfsiz foydalanaman», «Eng faol mahalla» kabi nominatsiyalarda g'olib bo'lgan tanlov ishtirokchilariga qimmatbaho sovg'alar topshirildi.

**Sodiq RAHIMOV,**  
o'z muxbirimiz.

## 5-AVGUST – SVETOFORLAR KUNI

## QIZIQ FAKTLAR

Har yili 5-avgust kuni dunyoda svetoforlar kuni ni-shonlanadi. 1914-yil 5-avgust kuni AQSHdagi Klivlend shahridagi chorrahalardan biriga svetofor ishlab chiqaruvchi kompaniya



tomonidan to'rtta elektr svetofor o'rnatiladi. Ushbu svetoforning ixtirochisi Jeyms Xog edi. Ko'plab davlatlarda shu sana munosabati bilan turli ta'lim muassasalarida yo'l-harakati qoida-

dalari bo'yicha tadbirlar o'tkaziladi. Odamlarga qoidalar yozilgan broshyuralar tarqatiladi.

Londonda svetoforga haykal o'rnatilgan. U daraxt shaklida bo'lib, shoxlari svetoforlardan tashkil topgan. 1998-yili fransiyalik haykaltarosh Pyer Vivan tomonidan ishlab chiqilgan ajoyib ko'rinishdagi «svetofor daraxt» tartibni saqlash bilan birga havoni ham tozalaydi.



Svetoforlardagi qizil va sariq ranglar keyinchalik futbol o'yinlari vaqtida shu ikki rangdagi kartochkalar qo'llana boshlanishiga sabab bo'lgan.

Pragashahridagi nafaqat Chexiyaning, balki Yevropaning eng tor yo'lkasida svetofor o'rnatilgan. Bu yo'lkadan bir vaqtning o'zida faqat bitta odamgina o'ta oladi.



Yana bir o'ziga xos svetoforni Daniyada ko'rish mumkin. Piyodalar uchun o'rnatilgan svetoforga tushirilgan jangchi tasviri nafaqat 1849-yildagi Federatsiya jangini eslatadi, balki harakatni ham tartibga soladi.



JINOYATGA JAZO MUQARRAR

Bir kuni Fattoh ishdan chiqib, «og'u»si qolmaganini eslaydi va o'zi bilgan «dorifurush»larnikiga yo'l oladi. U yerda Og'abekni uchratib qoladi. Og'abek ham aslida ana shu ishlarning pixini yorgan tullaklardan edi. Boshqalarga Fattohni go'yo o'zining yaqin kishisidek ko'rsatib, mijozni o'ziga og'diradi. Gap orasida bu yerlarga kelib ovora bo'lmasligini, nimadan qancha lozim bo'lsa, o'zi tashlab o'tishini aytadi. Ular qo'l berib xayrlasharkan, Og'abek Fattohning qulog'iga: «Istasangiz, siz ham soting. Yaxshigina foyda qilasiz. Loqaq, o'zingizniki tekinga tushadi, oka...» deb shivirlaydi. Kutilmagan bu taklifga nima deyarini bilmay, Fattoh yelka qisib qo'yadi.

U yo'l-yo'lakay nima qilarni bilmay ikkilanib boradi. Necha yildirki, boshi qora mehnatdan chiqmaydi, ammo topgani ro'zg'origa arang yetadi. Balki, shu «biznes»ni ham boshlasa, harholda yo'q joydan pul kelib turarmidi, deb o'ylaydi. Ammo ko'proq dori sotib olish uchun o'zida ortiqcha pul yo'q.

Ertasiga ishga borib, ancha yillardan beri o'zi bilan birga ishlab keladigan Soib akaga bu haqda gap ochadi. Shu ish orqali yaxshigina daromadga ega bo'lishi mumkinligiga uni ishontiradi.

Ana shunday kunlarning birida avtomashinasini tuzatish uchun kelgan mijoz – Ahmad bilan gaplashib o'tirib, mavzu psixotrop dori vositalariga buriladi.

– Istasangiz, menda bor, sotaman, – deydi Fattoh Ahmadga.


– Rostdanmi, «Zar»dan ham bormi?

– Siz uchun topamiz, oka. – Unda kerak bo'lganda faqat sizdan olaman, ishonchlisiz.

Ular qo'l siqishib kelishgan bo'ladi. Fattoh Ahmadga doim beminnat xizmat ko'rsatib keladi. Dori ortidan

## ZALOLATGA ELTGAN YO'L

**Fattoh (voqea ishtirokchilarining ismlari o'zgartirildi) qachon, qanday qilib psixotrop dori vositalari qabul qilishni boshlaganini eslolmaydi ham. Uning gulday hunari bor, 10 yildan buyon avtoservisda transport vositalarini ta'mirlash bilan shug'ullanib keladi. Har kuni o'rtacha o'nga yaqin kishi bilan muloqot qiladi, ba'zilar qayta-qayta kelganiga yaqin tanish ham bo'lib ketgan. Og'abek ham ustaxonaga mashinasini ta'mirlatish uchun kelib-ketib yurardi.**



kelayotgan mablag'lar kelishuvga ko'ra taqsimlanib kelinadi.

– Fattoh, yaxshimisiz, «Zar»dan bormi? 35–40 dona kerak, – gapni qisqaca qiladi bir kuni Ahmad.

– Ayni paytda shuncha yo'q, ertaga tayyor qilib qo'yaman.

– Bo'ldi, kelishdik!

Ertasiga Fattoh Ahmadga qo'ng'iroq qilib, «buyurtma» tayyor bo'lganini aytadi. Ahmad ustaxonaga kelganda, Fattoh qop-qora moyga belangan, mashina tuzatish bilan ovora edi.

– Soib aka, «boks»dan olib chiqing anavindan, – deb tushuntiradi Fattoh. Soib shoshgancha ichkaridan 34 dona «Zardeks» dori vositalarini olib chiqib, Ahmadning qo'lga tutqazadi.

Fattoh olgan pullarni sanab ko'radi.

– 3 100 000 so'm, to'g'ri.

Ahmad Fattohga doimiy mijozligini aytib, kelishtirib bering deb elanadi. Fattoh unga 100 ming so'mini qaytarib beradi.

– Boringizga shukr, oka! Harna-da! – pulni ikki buklab yon cho'ntagiga soladi Ahmad.

Fattoh qo'lidagi pullarni Soibga tutqazadi, u esa «boks»ga olib kirib ketadi. Shu payt ro'parasidan ikki kishi o'zi tomonga kelayotganiga ko'zi tushadi. Ular o'zlarini huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlari deb tanishtirgach, hujjatlarni ko'rsatishadi. So'ng «Sizlarda psixotrop dori vositalari bormi?» deb so'rashadi, u yo'q deb javob beradi. Lekin

xodimlar «boks»ni ko'zdan kechirishganda, u yerdan yana 9 dona «Zardeks» psixotrop dori vositasini topishadi.

Tezkor xodimlar ularni Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish Departamentining Uchtepa tuman bo'limiga olib borishadi. Fattoh o'z aybiga to'liq iqror bo'ladi, Soib esa barchasini chalkashtirishga urinadi.

Fattoh xodimlar tomonidan o'tkazilgan suhbatdan so'ng qilmishidan pushaymonda bo'ladi, Og'abekning ham xatti-harakatlari noqonuniy ekanini anglab, tergovga yordam berish maqsadida departamentning Uchtepa tuman bo'limi boshlig'ining nomiga ariza bilan murojaat qiladi. Arizaga asosan, Departament va DXX xodimlari bilan birgalikda Og'abekning noqonuniy faoliyatini fosh qilish va unga nisbatan qonuniy chora ko'rish bo'yicha tezkor tadbir o'tkazish rejalashtiriladi.

Fattoh Og'abekka qo'ng'iroq qilib, undan 50 dona «Zardeks» dorisidan so'raydi. U tushdan keyin ustaxonasiga tashlab o'tishini, 2.5 mln so'm pulni tayyorlab qo'yishini aytadi. Og'abek aytilgan vaqtda «Gentra» rusumli avtomashinasida ustaxonaga yetib keladi. Doimgidek, Fattoh mashinaning old o'rindig'iga o'tiradi.

– Mana kelishilgan pullar, – deb 2.5 mln so'mni Og'abekning qo'lga tutqazadi.

zadi. U pullarni sanay boshlagan mahali tezkor xodimlar mashinaning oynasini taqillatib, xizmat guvohnomalarini ko'rsatishadi. Ammo Og'abek ularning qonuniy talablariga bo'ysunmay, oldida turgan bir nechta mashinalarni turtib-surib, qochib ketadi...

– Iye, bu nima qilganingiz, axir?! Xodimlarning qonuniy talabiga bo'ysunishingiz shart! – deydi ko'zlari olazarak bo'lib Og'abekka.

– Siz... Siz meni sotdingiz! – baqiradi u Fattohga.

Fattohni haqoratlab, qadr-qimmatini tahqirlaydi va kimsasiz joyda mashinasidan majburlab tushirib, o'zi esa qochib ketishga ulguradi.

Jinoyat hech qachon jazosiz qolmaydi. Jinoyatchilarning bari qilmishiga yarsa jazoga tortildi. Mamlakatimizda giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar savdosiga qarshi doimiy ravishda keskin chora-tadbirlar ko'rilmogda. Jamiyat ravnaqi va yurt taraqqiyotiga bolta uruvchi bu ofatga qarshi kurashish nafaqat huquqni muhofaza qiluvchi organlarning vazifasiga, balki har birimizning insoniylik burchimizga aylanmog'i shart.

**Jahongir ODILOV,**  
Jinoyat ishlari bo'yicha  
Uchtepa tuman sudi  
sudyasi.

**Adolat FAYZIYEVA,**  
o'z muxbirimiz.  
Toshkent shahri.





## SALOMATLIK SABOQLARI

## OVQAT HAZMINI YAXSHILASH

Modda almashinuvi juda murakkab jarayon bo'lib, uning buzilishi salomatlikka jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Taom iste'molidan so'ng ba'zi insonlarni qorin og'rig'i, dam bo'lishi, jig'ildon qaynashi va boshqa noxush alomatlar qiynaydi. Bu holatlar tez-tez kuzatilsa, albatta, shifokorga murojaat qilish tavsiya etiladi. Lekin organik jihatdan muammo bo'lmay, buzilishlar faqat fiziologik xususiyatga ega bo'lsa, u holda, hech bir dori vositalarisiz o'zingizga yordam qilishingiz mumkin.

Me'yorga solinmagan ovqatlanish tartibi, yo'l-yo'lakay ovqatlanish, stress holatlari, sifati past, balanslanmagan yoki ortiqcha yegulik – bularning hammasi o'z ta'siriga ega. Bundan tashqari, quyidagi foydali tavsiyalarni odat tusiga kiritish maqsadga muvofiqdir.

**Nonushtadan yarim soat oldin bir stakan iliq suv iching.** Bu tananing uyg'inishiga va ovqat hazm qilish jarayonini «ishga tushirishga» xizmat qiladi.

**Kun davomida ko'proq suyuqlik iching.** Yoningizda (ayniqsa, issiq ob-havo sharoitida) idishda suv olib yurishga odatlaning va vaqti-vaqti bilan bir qultumdan iching. Bu organizm suvsizlanishining oldini olishga yordam beradi. Ko'p suv ichish ko'ngilni ozdirsa, o'rniga mevali choy yoki yalpiz qay-

natmasini ichish mumkin. Lekin qadoqlangan sharbatlar, gazlangan ichimliklar, shuningdek, achchiq choy va qahva chanqoq hissini orttirib, tanani suvsizlantiradi. Noqulay bezovtalik yoki qorin shishishini his qilsangiz, ovqatdan bir soat oldin yoki 2 soat keyin xona haroratidagi suyuqlikni ichish foydalidir.

**Taomnomada ko'katlar, meva va sabzavotlar ko'proq bo'lsin.** Ular ichak

faoliyatini rag'batlantirib, tanadan keraksiz moddalarni chiqarib tashlashga yordam beradi. Ammo mevalar iste'molini me'yordan oshirmang, chunki ularning tarkibida shakar miqdori ko'p. Ushbu mahsulotlarni faqat kunning birinchi qismida tanovul qilgan ma'qul.

**Taom va ichimliklarni faqat iliq holda qabul qiling.** O'ta issiq yoki sovuq yeguliklardan voz kechish



tavsiya etiladi, chunki ular ovqat hazm qilish jarayonini qiyinlashtiradi.


**Tartibli ovqatlanishga o'ting.** Likopdagi taom miqdorini kamaytiring va kuniga bir necha marta kam-kamdan tamaddi qilishga odatlaning.

**Taomlanish vaqti-da boshqa narsalarga chalg'imang.** Dasturxon ustida mutolaa qilmang, televizor ko'rmang, gadgetlarni bir chetga olib qo'ying. Aks holda, yegulikni oxirigacha chaynamay, tez yutib yuborishingiz va me'yoridan ortiq iste'mol qilib qo'yishingiz mumkin. Har bir luqmani

shoshmagan holda, kamida 10–20 marta chaynang. Bu nafaqat ovqat hazm qilishni osonlashtiradi, balki to'yish hissini tezroq his qilishga yordam beradi. Demakki, tanada ortiqcha vazn ham yig'ilmaydi.

Tabiiyki, izdan chiqqan hazm qilish jarayonini yaxshilash uchun turmush tarzini tubdan sog'lomlashtirish: o'z vaqtida va me'yorida uxlash, to'g'ri ovqatlanish, zararli odatlarni tashlash, ruhiy siqilish va asabiylashish holatlarini kamaytirish lozim.

**Gulchehra AZIMOVA tayyorladi.**



## ПОЧЕМУ НЕЛЬЗЯ ПОСТОЯННО СИДЕТЬ?

1. При длительном сидении образе жизни уменьшается поступление кислорода к мозгу, что может привести к замедлению выработки веществ, необходимых для поддержания стабильного настроения, острого мышления и хорошей памяти.

2. Постоянная письменная или печатная работа приводят к мышечному

напряжению в области кисти. Даже название такого состояния имеется – синдром запястного канала или туннельный синдром.

3. Застой крови и лимфы (очищает наш организм от токсинов). Когда мы сидим, все перетекает в нижние конечности. От этого могут возникнуть отеки, осложнения варикоза и даже тромбозы.

4. Страдает позвоночник. Мало кто может похвастаться идеально прямой спиной во время сидения. Сидим мы криво, и позвоночнику надо адаптироваться.

**Как избежать последствий:** делайте минутные перерывы. Ходите, бегайте на месте. Вы сразу же почувствуете, что организму стало легче.

## СПОСОБЫ ИЗБАВЛЕНИЯ ОТ НАТОПТЫШЕЙ

### 1. Ванночка для ног:

сода – 3 ч. л.;  
хозяйственное мыло (стружка) – 1 ст. л.;  
вода – 1 л.

Нагрейте воду и растворите в ней соду и мыло. В зависимости от размеров тастика можно пропорционально увеличить количество всех ингредиентов.

Опустите ноги в теплый раствор и подержите 40 минут.



### 2. Маска для ног:

аспирин – 6 таблеток;  
лимонный сок – 1 ч. л.;  
вода – 1 ч. л.

Измельчите аспирин и смешайте его с водой и соком до образования пасты. Нанесите пасту непосредственно на сухие мозоли. Оберните ноги полиэтиленовыми пакетами и наденьте носки. Через 10 минут смойте маску и смажьте стопы кремом. Повторяйте эту процедуру через день в течение двух недель.






В подразделениях ОСО «Ватанпарвар»

## СОВРЕМЕННАЯ БАЗА ДЛЯ ПОДГОТОВКИ ВОДИТЕЛЕЙ



В целях формирования теоретических знаний и практических навыков при подготовке водителей автотранспортных средств в учебных заведениях ОСО «Ватанпарвар» корпуса и автодромы оснащаются инновационными технологиями.



Введен в эксплуатацию также современный автодром Бухарского учебно-спортивно-технического клуба ОСО «Ватанпарвар».

Выступившие на его открытии отметили, что модернизация материально-технической базы подразделений оборонно-спортивной организации послужит не только подготовке специалистов, но и будет способствовать обеспечению безопасности дорожного движения.

В ходе мероприятий руководителям учебных клубов были переданы соответствующие сертификаты и лицензии.

**Пресс-центр  
Организации  
содействия обороне  
«Ватанпарвар».**

В рамках этих мер в Шахрисабзской автошколе, действующей при Кашкардинском областном совете ОСО «Ватанпарвар», сдан в эксплуатацию современный автодром.

В церемонии открытия объекта приняли участие председатель Центрального совета ОСО «Ватанпарвар» Хусан Ботиров, начальник службы безопасности дорожного движения Департамента общественной безопасности МВД полковник Шерзод Ибрагимов, от-

ветственные работники хокимията города Шахрисабза и представители общественности.

Этот объект является подарком для горожан к приближающейся 33-й годовщине независимости страны. На его базе можно готовить водителей всех категорий.



Хоразм вилояти ИИБ раҳбарияти, шахсий таркиби ва Фахрийлар кенгаши истеъфодаги полковник

**Отаназар РАЖАБОВ**нинг

вафот этганлиги муносабати билан марҳумнинг оила аъзолари ва яқинларига чуқур ҳамдардлик билдиради.

## MUNAJJIMLAR BASHORATI

(12-avgustdan – 18-avgustgacha)



**Qo'y.** Bu davrdagi har qanday yangi tanishuvlar foyda va omad olib keladi. Atrofdagilar bilan ko'proq munosabatda bo'lishga harakat qiling, faqat shu yo'l bilan bu haftada kuzatilishi mumkin bo'lgan ko'ngil g'ashligidan qutulish imkoniga ega bo'lasiz.



**Buzoq.** Ish joyingizda raqobatga duch kelishingiz mumkin. Imkon qadar mojaro va kelishmovchiliklardan yiroq turing. Bahslashishga oshiqmang, kelib tushadigan barcha takliflarni mutaxassislar bilan muhokama qiling. Xatoga yo'l qo'ymaslik uchun «yetti o'lchab, bir kesish» tavsiya etiladi.



**Egizaklar.** Bu davrda yuz beradigan barcha voqea-hodisalar ustida jiddiy mulohaza yuritish maqsadga muvofiqdir. Yaxshilab o'ylab ko'ring, so'nggi paytlarda faqat o'zingizga vaqt va e'tibor ajratib, yaqin insonlarning istak-xohish va qiziqishlari haqida unutib qo'yadingizmi? Shularning hammasini tarozi pallasiga qo'yib, xolis xulosa chiqarishga harakat qiling.



**Qisqichbaqa.** Yoshi va lavozimi jihatdan yuqori turuvchi tanishlar bilan munosabat qilishda ehtiyotkor bo'lib, imkon qadar xushmuomalalikni o'rniga qo'ying. Vakolatingizga kirmagan masalalarda tashabbus bildirishdan tiyiling. Bu ham ish, ham shaxsiy hayotingizga tegishli.



**Arslon.** Sokinlikda yoki tabiat qo'ynida ko'proq dam olishga e'tibor qarating. Biroq hordiq uchun ortiqcha sarf-xarajatga berilib ketmang, chunki bu davrda moliyaviy jihatdan biroz qiyinchilik yuzaga kelishi mumkin. Hafta davomida ziddiyatlarning oldini olishga, yon-atrofdagilar bilan aslo bahslashmaslikka harakat qiling.



**Parizod.** Chigal va hal etib bo'lmaydigan masalalar hech bir qiyinchiliksiz o'z yechimini topadi. Bu davrda moliyaviy jahada tejamkor bo'lib, ortiqcha xaridlardan o'zingizni tiyishga harakat qiling. Ishdan bo'sh vaqtni imkon qadar ko'proq sayr qilib, toza havodan nafas olishga bag'ishlang.



**Taroz.** Bu hafta uchun mushkul vazifalarni rejalashtirmang, aks holda, ba'zi sabablar tufayli ularni o'zgartirishga yoki bekor qilishga to'g'ri keladi. Sizni biroz notinch va tashvishli kunlar kutmoqda. Bu davrda ikkilanish, jur'atsizlik va shubha har jihatdan sizga xalaqit qiladi.



**Chayon.** Dastlabki uch kun biroz og'ir kechadi. O'zaro tushunmovchilik va murosaga kelmaslik atrofdagilar bilan munosabatlarga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Katta ahamiyatga ega bo'lgan jiddiy loyihalarga hozircha qo'l urmaganingiz ma'qul. Mablag' sarflashda ehtiyotkor bo'ling, ularning ba'zilar omadsiz bo'lishi mumkin.



**O'qotar.** Ichki sezish qobiliyatingizga quloq tuting, u aslo pand bermaydi. Bu hafta siz uchun yoqimli lahzalarga boy bo'ladi. Yaqinlaringizdan safar taklifi yoki kutilmagan sovg'a olishingiz mumkin. Ularga e'tibor va g'amxo'rlik bilan javob qaytaring. Dam olish kunlarini salomatlikni mustahkamlashga, tashqi ko'rinishni yaxshilashga va miriqib hordiq chiqarishga bag'ishlang.



**Tog' echkisi.** Moliyaviy mablag' sarflarini yaqinlaringiz bilan obdan maslahatlashgan holda amalga oshiring. Lekin shaxsiy hayotga bog'liq qarorlarni mustaqil qabul qilishga intiling. Sokinlik va xotirjamlik zaruratini tuysangiz bu hafta vaqtincha ishni va oilaviy tashvishlarni bir chetga surib, o'z qiziqish va sevimli mashg'ulotlaringiz uchun vaqt ajrating.



**Govg'a.** Bu davr siz uchun o'ta omadli bo'lib, keskin o'zgarishlar va kutilmagan voqealarga boy bo'ladi. Rejalashtirilgan barcha yumushlar va ko'zlangan maqsadlar ko'ngildagidek amalga oshadi. Buning uchun yanada faol harakat qilishingizga to'g'ri keladi.



**Baliq.** Hafta davomida ziddiyatlarning oldini olishga harakat qiling. Ulkan ish rejalarni tuzishga oshiqmang, kutilmagan xaridlardan o'zingizni tiyishga harakat qiling, negaki, bu haftada kasbiy sohangizga oid qiyinchiliklar yuzaga kelishi, pul yo'qotishlar kuzatilishi mumkin.



# UMR O'TAR, VAQT O'TAR

Qo'shiq matni O'zbekiston xalq shoiri Omon Matjon tomonidan 1979-yilda yozilgan. Shoir aynan ushbu ijod namunasida fikr yuritarkan, shunday degan: «Umr o'tar, vaqt o'tar»ni 15–20 ga yaqin hofiz aytgan. Bir guruh odamlar Ortiq aytganini juda sevib eshitishadi, birovi Otajon aytganini, biri G'ulomjon Yoqubning aytganini, birovi boshqa-boshqa... Muyassarining ovozlari benihoya ulug'. Lekin, birinchi uni, doim eslayman, nihoyatda buyuk ovoz bor edi, Otajon Xudoyshekurov aytgan».

Ustoz san'atkor Ortiq Otajonov mazkur taronaning yaratilishi borasida quyidagi fikrlarni bildirgan: «Xorazmda bir o'rtog'imning to'yida rahmatli do'stim, mashhur hofiz Otajon Xudoyshekurov bilan xizmatda bo'lib turgandik. Otajon turib, shu Omon Matjonning so'zini cho'ziq ohangda ijro qildi. Keyin o'sha yerda men bilan o'tirgan yaqin insonlarimiz hamda shi-navandalar «So'z zo'r ekan-u, kuyi to'g'ri kelmabdi», deyishdi. Oddiy bir shinavanda sifatida shunday gapirib o'tirishdi. Keyin men eshitib ko'rdim-da, Toshkentga qaytganimda shoir Omon Matjonning huzuriga borib, «Omon aka, shunday bir so'zingiz bor ekan, menga shuni bersangiz», dedim. Omon aka bilan o'shanda birinchi marta uchrashishimiz edi, 1980-yilda. Keyin «Ey, Ortiq, mayli, uka, meni yo'qlab kelibsan, shu so'zimni emas, senga birato'la kitobimni sovg'a qilib bera qolay, ichidan balki boshqa so'zlar ham chiqib qolar», deb kitobini menga sovg'a qilgan. Uyga keldim. Yuragimda aylanib yurgan kuy bor edi, shu to'g'ri keldi, shunga soldim va ashula qildim. 1981-yili ya'ni, bir yildan keyin yangi yil kechasi televideniya aytdim».

Jurnalist Nasriddin Asriddinov esa ushbu qo'shiqning ekran yuzini ko'rishi bilan bog'liq jarayonlarni quyidagicha hikoya qiladi: «1980-yildan 1981-yilga o'tar kechasi O'zbekiston televideniyesida yangi yil oqshomini tasvirga olish ishlari boshlab yuborilgan. Ortiq Otajonovga ikkita – bitta sho'x va bitta og'ir qo'shiq tayyorlab kelishini aytishadi. Ortiq Otajonov yangi yil oqshomi uchun ikkita qo'shiqni ham ijro etadi. Qo'shiqni tanlashga kelganida, aynan qaysi biri yangi yil oqshomida efirga ketishi borasida ikkilanishlar bo'ladi. Telekanalning ayrim rahbarlari «Umr o'tar, vaqt o'tar» qo'shig'i juda og'ir va g'amginligini aytib, sho'xrog'ini efirga beramiz, deyidilar. O'zbekiston televideniyesining raisi Ubay Burxon aynan «Umr o'tar, vaqt o'tar» qo'shig'ini efirga berishlarini talab qiladi. Nima uchun, aynan shu qo'shiq ketishi sababini rahbarlarga shunday tushuntiradi: «1980-yilni tamomlab, 1981-yilga qadam qo'yyapmiz, demak, har bir inson shu qo'shiq orqali 1980-yilda o'tgan umrini sarhisob qilib, yana bir bora o'ylashi uchun imkoniyat», deydi u. Shu tariqa, qo'shiq birinchi marta 1980-yil O'zbekiston televideniyesining yangi yil oqshomida muxlislarga va tomoshabinlarga havola etiladi.



**Shunday musiqiy asarlar borki, ular vaqt tizginiga bo'ysunmaydi, eskirmaydi. Bil'aks, har bir ijrochi talqinida yangilanib, so'zlari, ohangi dildan tilga, tildan dilga yoqimli tarzda quyilib, hayot haqida o'ylashga, mushohada qilishga undaydi. O'zbekiston, Turkmaniston va Qoraqalpog'iston xalq artisti Ortiq Otajonov ijrosida san'atsevar xalqimizning qalbidan chuqur joy olgan «Umr o'tar, vaqt o'tar» taronasi ana shunday umri boqiy qo'shiqlardan biridir.**



Bugungi kunda Umidaxon, Otajonovlar sulolasining yosh, umidli vakillaridan Ali Otajonov va boshqa xonandalar ushbu taronani kuylashda davom etmoqda. Biroq ko'pchilik san'at ixlosmandlari bu musiqiy asarni ustoz san'atkor Ortiq Otajonov ijrosida qadrlaydi. Quyida ushbu qo'shiq so'zlarini havola etamiz.

\* \* \*

**Umr o'tar, vaqt o'tar,  
Xonlar o'tar, taxt o'tar,  
Omad o'tar, baxt o'tar,  
Lekin hech qachon chiqmas yodimdan  
Sening yurishlaring, sening kulishlaring.**

**Bahorda bog' na go'zal,  
Qor tushsa tog' na go'zal,  
Bu yoshlik chog' na go'zal,  
Lekin hech qachon chiqmas yodimdan  
So'zsiz qarashlaring, holim so'rashlaring.**

**Oy chiqar goh zaholi,  
Do'stlar ko'pdir vafoli,  
Hayot shundan safoli,  
Lekin hech qachon chiqmas yodimdan  
Sokin so'zlashlaring, pinhon izlashlaring.**

**Umr – yo'l, qayrilish ko'p,  
Uchrashish, ayrilish ko'p,  
Unutish, aytilish ko'p,  
Lekin hech qachon chiqmas yodimdan  
O'sha kulishlaring, o'sha kelishlaring.**  
Gulnoza TURG'UNBOYEVA tayyorladi.



## E'LON

**O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining ixtisoslashtirilgan maktab-internati 2024/2025-o'quv yili uchun quyidagi fanlardan malakali pedagoglarni tanlov asosida ishga qabul qiladi.**

- Rasm va chizmachilik fani o'qituvchisi ( o'zbek va rus guruhlar uchun);
- Matematika fani o'qituvchisi (o'zbek va rus guruhlar uchun).

Tanlov O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 28-iyuldagi 466-sonli qarori bilan tasdiqlangan «O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining akademik litseyleri va ixtisoslashtirilgan maktab-internatiga pedagog xodimlarni ishga qabul

qilish tartibi to'g'risida»gi nizom talablari asosida o'tkaziladi.

**Tanlovga hujjat topshirish muddati:** 2024-yil 1-avgustdan 20-avgustgacha.

**Manzilimiz:** Toshkent shahar Uchtepa tumani 11-mavze M. Shayxzoda ko'chasi 64-uy.

**Telefonlar:**  
+99890-065-25-75; +99899-878-37-06;  
+99893-520-44-48.

MUASSIS:

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI

Bosh muharrir –

polkovnik  
Bernora SADIKOVA

Bosh muharrir o'rinbosarlari –

podpolkovnik Azizjon FAYZIYEV  
kapitan Aziza BOHODIROVA

Mas'ul kotib –

Erkin SATTOROV

Navbatchilar –

Adolat FAYZIYEVA  
Radik TUMPAROV

Sahifalovchilar –

Zokir BOLTAYEV  
Ilhom JUMANOV  
Akbar BOLTAYEV

Fotomuxbirlar –

Abu KENJAYEV  
Ikrom HASANOV

TELEFONLAR:

71-231-33-88;

Faks: 71-231-40-05.

Obuna masalalari  
bo'yicha:

71-231-38-74;

97-420-89-24

Web-site: www.postda.uz

E-mail: info@postda.uz

ISSN 2010-5355



Tahririyat hisob raqami  
h/r 23402000300100001010.

Bank kodi 00014.

O'zbekiston Respublikasi  
Iqtisodiyot va moliya  
vazirligi g'aznachiligi.

Shaxsiy h/v

470010860262877031101179001

STIR 200637499.

Tahririyatga kelgan qo'l-yozma va suratlar egasiga qaytarilmaydi.

Nashrimizdan ko'chirib bosilganda manba ko'rsatilishi shart.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi va sahifalandi.

«Kolorpak» MCHJ  
bosmaxonasida chop etildi.  
Korxonalar manzili: 100206  
Yunusobod tumani,  
Yangishahar ko'chasi 1<sup>A</sup>-uy.

Gazeta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 0120-raqam bilan ro'yxatga olingan.

Buyurtma № 2667.

Bosilish – ofset usulida.

Bichimi – A3. Hajmi – 6 bosma taboq. 45612 nusxada chop etildi.

**Obuna raqamlari:**

Yakka tartibda – 180.

Tashkilotlar uchun – 366.

Bosishga topshirish vaqti – 22.00.

Bosishga topshirildi – 21.00.

Sotuvda kelishilgan narxda.

MANZILIMIZ:

100070, Toshkent shahri,  
Shota Rustaveli 1-berk  
ko'chasi 9-uy.

